

BAYRAMINGIZ MUBORAK, AZIZ OPA-SINGILLAR!

# POSTDA

№ 10 (4756)

2026-yil 5-mart payshanba

НА ПОСТУ



AT THE POST



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## QAYISHGANNI XALQ SIYLAYDI



Olot tumani ko'hna va navqiron Buxoroning chekka hamda chegara hududi hisoblanadi. Tuman hokimi, «Sodiq xizmatlari uchun» medali va «El-yurt hurmati» ordeni sohibasi Nargiza Ne'matova bilan bo'lgan suhbatimiz tumanda amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusidagi rejalar borasida bo'ldi.

(Davomi 8-betda.)

## SALOHİYATNING YORQIN NAMOIYISHI



«Yangi O'zbekistonning shijoatli ayollari» shiori ostida Xorazm viloyatida o'tkazilgan ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarning V Respublika forumi nafaqat katta tadbir, balki ayol jasorati, ma'naviyati va kasbiy salohiyatining yorqin namoyishiga aylandi.

Forum doirasida qator tadbirlar, jumladan, intellektual o'yin, ko'rik-tanlovlar zo'r uyushqoqlik bilan yuqori saviyada o'tkazildi.

(Davomi 3-betda.)

## HAR SOHADA G'OLIB QIZLARSIZ

To'marisdan meros jasorat,  
Bibixonim bergan fasohat,  
Nodiradan yuqqan nafasat,  
Bo'y ko'rsatar har kun, har soat,  
Qadim izni bosgan izlarsiz,  
Har sohada g'olib qizlarsiz.

Ko'rdim sizni tunda, tongda ham,  
Nukusda ham, Namanganda ham,  
Farg'ona-yu Andijonda ham,  
Samarqandda ham, Surxonda ham,  
Har jabhada ilg'or qizlarsiz,  
Baxtingizni ishdan izlarsiz.

Qashqadaryo faxr etar sizdan,  
Buxoro der: bu qizlar bizdan,  
Ba'zan qor-u suv kechib tizdan,



Ortda qolmay bir-biringizdan,  
Faqat olg'a borar qizlarsiz,  
Bir kamimiz bo'lar sizlarsiz.

Sirdaryoga sirlarin aytgan,  
Navoiyga bir doston bitgan,  
Xorazmni ko'ksida tutgan,  
Sodiqlikka qasamyod etgan,  
Yigitlardek shaxdam qizlarsiz,  
Osmondagi cho'ng yulduzlarsiz.

Poytaxtdagi har bir ko'chalar,  
Xohi kunduz, xohi kechalar,  
Muammolar siz-la yechilar,  
Shu bois ham necha-nechalar –  
Havas bilan boqqan qizlarsiz,  
Zarhal pogon taqqan qizlarsiz.

## Kasbiga sodiqlar

## «FAQAT NAZORATCHI EMASMIZ...»

**O**lmalik shahar IIB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, katta leytenant Omina Zoitova yuksak mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan fidoyi xodimlardan biri. U hamkasbi – bo'lim katta inspektor-psixologi, kapitan Mehriddin Rahmatov bilan birga voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida jonbozlik ko'rsatayotgani bois yuqori natijalar qo'lga kiritilmoqda. Xususan, shahar hududida o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar soni sezilarli darajada kamayishiga erishilmoqda.

Lavhamiz qahramoni faoliyatida maktablar, ota-onalar va mahalla faollari



bilan hamkorlikda tez-tez suhbatlar, tarbiyaviy uchrashuvlar o'tkazilishi doimiy an'anaga aylangani quvonarli hol.

– O'smir xato qiladi, bu tabiiy. Inspektor-psixolog sifatida biz faqatgina nazoratchi bo'lib qolmay, ishonchli maslahatchi, qo'llab-quvvatlovchi va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi bo'lishimiz kerak. Chunki biz tomonimizdan aytilgan bir og'iz samimiy so'z, o'z vaqtida berilgan to'g'ri maslahat bolalarning hayotini ijobiy tomonga o'zgartiradi, – deydi u.

Olmalik shahrining oyoq-qo'ng'irida, maktab ostonalarida kezib yurgan har bir o'smiring buguni va ertasi katta leytenant Omina Zoitova kabi qalbidaryo xodimlarning doimiy e'tiborida. Boshqacha aytganda, kelajak buni yodkorlari ularning ishonchli himoyasida.

**Abu KENJAYEV,**  
fotomuxbir.

Toshkent viloyati.

## HAR QADAMDA MAS'ULIYAT

**Ichki ishlar organlari tizimida serjant Gulnora Boltabayeva kabi, erkaklar bilan yonma-yon turib, mas'uliyatning eng zalvorli yukini yelkasiga olgan ayollar ham bor.**



Gulnora xizmat faoliyatini 2001-yilda tezkor ta'sir ko'rsatuvchi militsiya otryadida snayperchi sifatida boshlagan. Qariyb yigirma yil davomida jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash guruhida xizmat qilarkan, u doimo oldingi saflarda bo'ldi. Bu shunchaki xizmat burchi emas, balki ayol qalbidagi Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqatning amaliy ifodasi edi.

Bugun u tumanlararo konvoy guruhida faoliyat yuritmoqda.

— Mahkumlarning og'ir taqdiri, ko'z yoshga to'la kechinmalari, ayrim hollarda esa achchiq jahl va tajovuz bilan yuzma-yuz kelish konvoychidan nafaqat jismoniy baquvvatlik, balki mustahkam ruhiy bardosh ham talab qiladi, — deydi lavhamiz qahramoni. — Bizning ishimizda xatoga o'rin yo'q.

Insonning irodasi qanday toblanadi? Gulnora uchun bu savolga javob — sport edi. Gulnora bolaligidan sharq yakka kurashi – karate bilan shug'ullanib, qora belbog' sohibi bo'ldi. U bir necha bor O'zbekiston chempioni va xalqaro turnirlarda g'olib bo'lgan. Jahon chempionatlarida qatnashishi esa uning iroda va intilishini namoyon qildi.

Uning qat'iyatli nigohida ertangi kunga ishonch, egnidagi formasida esa Vatan sharafiga mujassam.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

## TABRIK



Hurmatli va aziz ayollar!

Sizlarni 8-mart bahor bayrami bilan samimiy muborakbod etaman!

Har bir insonning hayotida uning yordami, ishonchi, sabr-toqatiga muhtoj ayol bor. Bu, ayniqsa, xizmatni o'tayotganda yaqqol seziladi. Ish mas'uliyat, xavf-xatar, qat'iy jadval bilan bog'liq bo'lganda, siz ko'pincha oldinga borishga kuch beradigan ishonchli tayanchga aylanassiz.

O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi tizimida xizmat qilayotgan ayollarga alohida so'zlarni aytgim keladi. Siz qiyin yo'lni tanladingiz. Sizning kasbingiz ehtiyotkorlik, prinsipiiallik va ichki matonatni talab etadi. Shu bilan birga siz odamlarga diqqatli bo'lib, ularni tinglash va tushunishni bilasiz. Bunda sizning o'ziga xos iste'dodingiz bor.

Ichki ishlar organlari xodimlarining onalari, umr-yo'ldoshlari, opa-singillari haqida ham gapirmay bo'lmaydi. Siz ular bilan xizmatning barcha qiyinchiliklarini baham ko'rasiz, qiyin paytlarda qo'llab-quvvatlaysiz, uyda kutasiz. Bu ham ko'zga tashlanmaydigan, ammo juda muhim xislat.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor bayramingiz bilan samimiy tabriklayman. Sizlarga sihat-salomatlik, xotirjamlik, mashaqqatli va sharaflil xizmatyngizda ulkan zafarlar tilayman. O'zingizni asrang! Siz haqiqatan ham mamlakatimiz uchun ko'p ishlar qilyapsiz.

Hurmat bilan,

**Viktor PAK,**  
**O'zbekiston koreys**  
**madaniy markazlari**  
**raisi,**  
**Oliy Majlis**  
**Qonunchilik palatasi**  
**deputati.**

Forum

# SALOHIYATNING YORQIN NAMOYISHI

(Davomi. Boshlanishi  
1-betda.)

Forum doirasidagi «Eng yaxshi kitobxon xodima» va «Fidoyi ayol xodima» ko'rik-tanlovlari ishtirokchilari o'zlarining yuksak mutolaa madaniyati, keng dunyoqarashi va adabiyotga bo'lgan mehrini hamda kasbiy-jangovar tayyorgarligini namoyish etdilar.

Qadimiy va betakror Xiva shahridagi «Ichangal'a» tarixiy majmuasida tashkil etilgan «Zakovat» intellektual o'yini – intellektual bahslar,

tezkor fikrlash, jamoaviy hamjihatlik – barchasi sog'lom raqobat va do'stona muhitda o'tdi.

Forum g'oliblarini taqdirlash marosimida Ichki ishlar vaziri o'rinbosari – Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'i, polkovnik Diyorbek Sattorov, Xorazm viloyati hokimi o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Nigora Kutlimuratova qatnashib, mukofotlarni tantanali ravishda topshirishdi.



Ichki ishlar organlarining 140 nafar ayol xodimi ishtirok etgan forumning 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar

kuni arafasida o'tkazilishida chuqur ma'no bor. Go'yoki bu tadbir ayollarning nafaqat mehr va latofat, balki mato-

nat va jasorat timsoli ekanini yana bir bor e'tirof etdi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Xorazm viloyati.



## G'OLIBLAR BILAN TANISHING

«Eng yaxshi  
kitobxon xodima»

**1-o'rin** – Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani IIB inspektor-psixologi, leytenant **Urozmatova Elmira Farxod qizi;**

**2-o'rin** – Buxoro viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi inspektori, katta leytenant **Tursunpo'latova Aziza Jo'ra qizi;**

**3-o'rin** – Jazoni ijro etish departamenti shifokori, mayor **Muhammadiyeva Nargiza Muxammadiyevna.**

«Fidoyi ayol xodima»

**1-o'rin** – IIV Yo'l harakati xavfsizligi xizmati axborot xizmati yetakchi mutaxassisi, podpolkovnik **Rajabova Dilnoza Mahammadikramovna;**



**2-o'rin** – Navoiy viloyati IIB Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili, podpolkovnik **Yesamuratova Nodira Sherdankulovna;**

**3-o'rin** – Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani IIOFMB katta tergovchisi, mayor **Narmanova Klara Eshnazarovna;**

– Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi

bo'linmasi katta inspektor-psixologi, mayor **Saydaliyeva Sojida Yusufxon qizi.**

«Zakovat» intellektual  
o'yini

**1-o'rin** – Buxoro viloyati IIB jamoasi;  
**2-o'rin** – Jazoni ijro etish departamenti jamoasi;

**3-o'rin** – Toshkent viloyati IIB jamoasi.



# KELAJAK EGALARIGA E'TIBOR

**D**ostonbek Mo'minov Mirzaobod tumanida istiqomat qiladi. O'n olti yoshli bu yigitcha yaqinda tuman IIB mas'ullari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda o'zining dasturchilikka qiziqishi, kelgusi intilishlari to'g'risida gapirdi. Faolligi, o'z kelajagi va yurt taraqqiyotiga befarq emasligi e'tiborga olinib, Dostonbekka homiylar ko'magida zamonaviy kompyuter sovg'a qilindi. Shuningdek, u Gulistondagi IT park mas'ullariga biriktirildi. Hozirda Dostonbek mohir dasturchilardan raqamli olamni o'rganmoqda.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlari tomonidan joylarda bo'lib o'tayotgan yoshlar bilan uchrashuvlarda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar oldidagi aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Xususan, respublikamiz bo'ylab har payshanba kuni «Yoshlar kuni» etib belgilanib, barcha darajadagi rahbarlarga mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlar bilan bevosita muloqot qilish, ularning muammo va takliflarini o'rganish hamda amaliy yordam ko'rsatish vazifasi yuklatildi.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Sirdaryo viloyatining barcha shahar va tuman IIB boshliqlari yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda. Mas'ul rahbarlar yoshlarning xonadoni va ish joylariga borib, ularning ijtimoiy ahvoli va qiziqishlarini o'rganmoqda. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning bandligini ta'minlash, ta'lim va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Sirdaryo tumani IIBda o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni»

tadbiri yoshlarni huquq-tartibot organlari faoliyati bilan yaqindan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. IIV Sirdaryo akademik litseyi o'quvchilari tuman IIB ma'muriy binosida bo'lib, ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, kundalik xizmat jarayonlari bilan tanishdilar. Xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan hamda namunali xizmat qilayotgan fidoyi xodimlar haqida ma'lumotlar taqdim etildi.

Viloyat IIB HPB tomonidan esa Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlanayotgan tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirildi. Ular «Qatag'on qurbonlari» muzeyida bo'lib, tariximizning saboqli sahifalari bilan tanishdilar.

Shuningdek, Guliston shahridagi hunarmandlar ustaxonalari va Yoshlar texnoparkiga sayohatlar tashkil etildi. Yoshlar kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, tikuvchilik kabi an'anaviy hunarlar bilan tanishish barobarida, robot texnikasi, dasturlash va 3D modellashirish



kabi zamonaviy yo'nalishlar haqida ma'lumot oldilar.

Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida «Rahbar va yoshlar» shaklida ochiq muloqotlar o'tkazilmoqda. Jumladan, Guliston davlat pedagogika institutidagi uchrashuvda ekstremizm, kiberjinoyatlar va giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlari olib borilib, yoshlar ogohlikka chaqirildi. Qilingan murojaatlar ro'yxatga olinib, ularni ijobiy hal etish bo'yicha mas'ullarga aniq topshiriqlar berildi.

«Yoshlar kuni» munosabati bilan viloyat IIB JXX Probatsiya bo'limi tomonidan Guliston shahridagi 15-sonli maktabning yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan uchrashuvda yoshlarning bandligini ta'minlash ular o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat va qayta

jinoyatlarning oldini olishda muhim omil ekani alohida ta'kidlandi. Uchrashuvda probatsiya hisobida turgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash va jamiyatga moslashtirish borasida bajarilgan ishlar sarhisob qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlari tomonidan yoshlar bilan ishlash yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Uchrashuvlar, ochiq muloqotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va manzilli ko'mak orqali ularning muammolari o'z vaqtida hal etilmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularni sog'lom va faol hayotga yo'naltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

## Jizzax viloyati



**V**iloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i kubogi uchun ayol xodimlar o'rtasida shaxmat va shashka bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan musobaqa jarayonida ishtirokchilar o'zlarining mantiqiy fikrlashi, strategik yondashuvi va sport mahoratini namoyon etishdi.



Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib va sovrindorlar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mazkur sport tadbiri ayol xodimlarning jamoaviy birdamligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda bayram kayfiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

O'z muxbirimiz.



## Безопасная среда

# ДЕЙСТВУЯ В ПАРТНЕРСТВЕ



Педагоги играют решающую роль в становлении личности, осуществляя синтез академических знаний и духовных ценностей. Этот тезис стал центральным на «круглом столе» на тему «Формирование безопасной среды в образовательном учреждении, повышение правовой и психологической ответственности педагогов и сотрудников», проходившем в Узбекском государственном

университете мировых языков.

Спикерами выступили представители Общества пропагандистов «Маърифат» при Республиканском центре духовности и просветительства, правоохранительных органов, профессорско-преподавательского состава, духовенства. Эксперты подчеркнули: университет – пространство фор-



мирования всесторонне развитой личности. Здесь пример наставника – важнейший инструмент воспитания. Особое внимание участники уделили вопросам профилактики правонарушений среди молодежи и эффективности межведомственного взаимодействия.

– Выстраивание здоровой среды требует

вовлеченности в воспитательный процесс каждого из нас, – отметила заместитель начальника УПП ГУВД города Ташкента подполковник Ширин Норматова. – Консолидируя усилия, работая сообща, мы можем добиться реальных результатов.

Соб. корр.

## Ветераны — наша гордость

### СЕРДЦЕ, НАСТРОЕННОЕ НА ПОРЯДОК

**Старший сержант в отставке Натела Мустафаева долгие годы посвятила службе в подразделениях безопасности дорожного движения Андижанской области.**

С юных лет она была увлечена музыкой. Окончив Андижанское училище искусств, вернулась преподавать в родную музыкальную школу Асакинского района.

Ее судьбу изменил случай: школу посетил заместитель начальника областного УВД, собиравший музыкантов для создаваемого духового оркестра. Успешно пройдя отбор, в 2000 году Натела была принята в коллектив.

Деятельность оркестра органично вписалась в жизнь управления: каждая неделя здесь начиналась с торжественного исполнения гимна, а выездные концерты вдохновляли сотрудников...

В 2005 году Н. Мустафаеву пригласили в областное УБДД – в агитационную группу требовался русскоязычный сотрудник. Она проводила встречи на предприятиях, разъясняла школьникам ПДД. Особое внимание уделяла подготовке детей к республиканскому конкурсу «Светофор», где андижанские команды неоднократно занимали призовые места. Активно сотрудничала со СМИ, вела на телевидении передачу, посвященную безопасности дорожного движения.



Позже Н. Мустафаева служила во 2-й мобильной группе – регулировала дорожное движение. Именно в те годы в эксплуатацию были введены первые фоторадары. Ей была доверена работа с новым устройством.

Героиня очерка с благодарностью вспоминает подполковников Абдуллажона Зокирова, Камбарджона Рахмонова, капитана Тоштемира Ахмедова, чьи советы сыграли важную роль в ее профессиональном становлении.

В 2016 году Н. Мустафаева вышла на пенсию, но сердцем осталась на службе.

– Сейчас система в корне изменилась, – говорит она. – Раньше почти вся работа велась вручную. Сегодня же сотрудники обеспечены планшетами, данные внесены в компьютерные программы, что значительно повышает эффективность службы.

Натела Мустафаева уже десять лет на заслуженном отдыхе, но в управлении ее продолжают ставить в пример молодым сотрудникам как образец добросовестного труда, преданности делу и ответственности.

**Саминжон ХУСАНЗОДА,**  
соб. корр.

Андижанская область.

## Оперативная сводка

### ПЕРЕКРЫТ КАНАЛ СБЫТА



В республике продолжается масштабная работа по пресечению незаконного оборота наркотических средств, психотропных веществ, а также сильнодействующих лекарственных средств.

В поле зрения оперативников ГУВД Ташкентской области и территориального подразделения СГБ попал канал сбыта, действовавший сразу в нескольких районах столицы и области.

В ходе операции в Зангиатинском районе была задержана 22-летняя жительница Яккасарайского района столицы, которая пыталась сбыть 26 единиц сильнодействующих препаратов. Проведенные следственно-оперативные мероприятия позволили выйти на след поставщиков. В ходе последовавших рейдов в Сергелийском и Мирзо-Улуг-

бекском районах Ташкента, а также Куйичирчикском и Кибрайском районах области задержаны члены преступной группы – трое мужчин и две женщины в возрасте от 26 до 50 лет. Из незаконного оборота изъято 98 единиц сильнодействующих препаратов и 135 граммов гашиша.

Также в Зангиатинском районе сотрудниками правоохранительных органов был задержан житель Коканда, который пытался реализовать крупную партию психотропных веществ – 1181 единицу.

Описанные мероприятия – лишь часть системной работы. Борьба с незаконным оборотом губительного зелья в числе приоритетных задач в сфере обеспечения общественной безопасности.

Соб. корр.

Ташкентская область.

## Uch avlod uchrashuvi

## QADR VA EHTIROM

Toshkent viloyati IIBB boshlig'iga biriktirilgan Ohangaron tumani-dagi «G'allaquduq» mahallasida «Uch avlod uchrashuvi» ma'naviy-ma'rifiy tadbiri tashkil etildi. Unda mahalla faollari, nuroniylar, faxriylar, yoshlar hamda mutasaddi tashkilotlar vakillari qatnashdi.



Tadbir davomida katta hayotiy tajribaga ega nuroniylarning ibratli umr yo'li, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi alohida e'tirof etildi. Yosh avlodni ilm-fanga qiziqtirish, ularni vatanparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash masalalari yuzasidan mazmunli fikr-mulohazalar bildirildi.

Shuningdek, tadbir doirasida namoyish qilingan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi chiqishlar yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, mardlik va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, san'atkorlar tomonidan ijro etilgan dilbar kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.



So'ngra nuroniylar va yoshlar bir dasturxon atrofida jam bo'ldi. Milliy qadriyatlarimizni targ'ib etish maqsadida mahalla faollari tomonidan tayyorlangan sumalak tortiq qilindi. Bularning barchasi avlodlar o'rtasidagi mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamladi.

Uchrashuv yakunida yoshlarga har jihatdan o'rnak bo'lib kelayotgan nuroniylar, qolaversa, ta'limda yuqori natijalarga erishayotgan maktab o'quvchilari viloyat IIBB boshlig'ining tashakkurnoma va faxriy yorlig'i, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.

## Jazoni ijro etish tizimida

## JAMIYATNING AJRALMAS QISMI

Yoshlar kelajagi haqida g'amxo'rlik qilish doimo davlatimiz rahbarining e'tiborida. Chunki mam-lakatning, jamiyatning ertangi kuni bugungi yosh avlodning bilimi, ma'naviyati va huquqiy ongiga bog'liq. Hozir barcha sohalarda yoshlar qo'llab-quvvatlanyapti, ularga iste'dodlarini yuzaga chiqarishda ko'maklashilmoqda.



IIV huzuridagi JIED boshlig'i, polkovnik Azizxon Umarxonovning Birinchi mintaqaviy hudud 24-sonli tarbiya koloniyasi tarbiyalanuvchilari bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotida shu haqda gap bordi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan, insonparvarlik

ruhi bilan sug'orilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tarbiyalanuvchilarga yetkazish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdan iborat edi.

Uchrashuvda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti, «Yosh huquqshunoslar» klubi hamda «Barqaror hayot» nodavlat notijorat tashkiloti



vakillari ham ishtirok etdi. Unda so'zga chiqqanlar jazoni ijro etish tizimida tub burilish yasalganini, endilikda jazolash emas, balki tarbiyalash va inson qadrini ulug'lash bosh mezonga aylanganini alohida ta'kidlashdi.

Haqiqatan ham, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ularning ong-u shuurini ijobiy tomonga o'zgartirish, hayotga bo'lgan qarashlarini to'g'ri shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda yoshlar ta'lim olishlari, kasb-hunar egal-

lashlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil tushunchalar berildi. Shuningdek, ochiq va samimiy muloqot chog'ida tarbiyalanuvchilarni qiziq-tirgan savollarga mutaxassislar atroflicha javob qaytarishdi.

Ma'lumot o'rnida shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda jazoni ijro etish koloniyalarida umumiy o'rta ta'lim bilan bir qatorda, turli kasb-hunarlariga o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu esa mahkumlar ozodlikka

chiqqanidan so'ng jamiyatda o'z o'rnini topishlariga zamin yaratadi.

Yuqoridagi kabi ochiq muloqotlar yoshlarga o'z fikrini erkin bildirish, muammolarini ochiq aytish imkonini beradi. Eng muhimi, ular o'zlarini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his eta boshlashadi. Bu qayta tarbiyalash jarayonida eng muhim omillardan biri sanaladi.

**Shahrizod SHOKIROV,**  
Axborot xizmati boshlig'i,  
kapitan.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

# SIZ ILA GO'ZAL KO'RINAR OLAM

(8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni)



Aziz-u mukarram onalarimiz, mehdardyo opa-singillarimiz, qalbimiz quyoshi bo'lgan qizlarimiz go'zallik, nafosat timsoli. Ularning ma'sum chehrasida nur, nozik jussasida hayotni yaratuvchi, yangilovchi, borliqni o'zgartiruvchi kuch, qudrat bor.

Dunyo dunyo bo'libdiki, onalar, opa-singillar, dilbar qizlarning tengsiz latofati va nafosatini, ezgulik va fidoyilik farishtasi ekanligini o'z ashorlarida sharaflamagan, kuy-qo'shiqlarda madh etmagan ijodkor yo'q. Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, buyuk shoir, alloma Alisher Navoiyning quyidagi hikmatli so'zlarini yana bir bor eslaymiz:

*Onalar oyog'i ostidadur  
Ravzayi jannat-u jinon bog'i.  
Ravza bog'i visolin istar esang,  
Bo'l onaning oyog'in tuprog'i.*

Inson zoti borki, ezgulik, hayotning sir-u asrorlari haqidagi dastlabki saboqlarini onaning mehr-u saxovati tufayli o'rganadi. Hayot davom etar ekan, dilbar, oqila, go'zal ayollar o'zining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan nafaqat oilada, balki butun jamiyatda poklik, halollik, samimiyat hamda adolatni saqlab turadilar. Zero, ulug' donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rifni ona so'zi ila berganlarida ham ana shunday chuqur ma'no mujassam.

Xotin-qizlarni e'zozlash – millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning charog'boni, umrimizning guli, deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz.

Quvonarlisi shuki, bugun mam-lakatimizda ularga bo'lgan munosabat har doimgidan yuqori. Yurtimiz aholisining salkam yarmini tashkil etgan xotin-qizlarning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'na-



lishlaridan biriga aylangan. Bunga javoban yurtimiz xotin-qizlari turli soha va tarmoqlarda Vatanimizning taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shmoqdalar. Xususan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o'rtacha 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a'zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda.

Shu o'rinda so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning sifatli ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratilayotganini ham ta'kidlash joiz. Jumladan, ayni paytda yurtimizdagi oliygoh talabalarining 52 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etayotgani, 6 ming 200 nafardan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarining 25 foizini olim ayollarimiz yaratayotgani ham – jamiyatda ularning o'rnini mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, **«Ayollari o'qimishli va kasb-hunarli bo'lgan yurtida tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Ayollari ma'rifatli bo'lgan xalq albatta baxtli bo'ladi»**. Bu so'zlarning amaliy ifodasi aql-zakovati, bilimi va iste'dodi bilan davlat hamda jamiyatning barcha sohalarida samarali faoliyat ko'rsatayotgan, nufuzli sport musobaqalari, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro tanlovlarda O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarayotgan xotin-qizlarimiz



timsolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoni sohibasi, Parij-2024 Olimpiadasi chempioni **Diyora Keldiyorovanning** sportdagi zafarli yurishlari, taniqli mikrobiolog olim **Dilfuza Egamberdiyeva** sho'rlangan tuproqda serhosil ekinlar yetishtirish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari uchun YUNESKOning nufuzli Karlos Finley xalqaro mukofotiga sazovor bo'lgani o'zbek ayolining qalb qiyofasi, mashaqqatli mehnatlari mevasi, desak, aslo mubolag'a emas. Davlatimiz rahbarining **«Aql-zakovatli, bilimli va iste'dodli xotin-qizlari-miz davlat va jamiyatning barcha sohalarida namuna bo'lishmoqda»**, deya bildirgan fikri ko'nglidagi yorug' maqsadlarini shaxtu-shijoat bilan ulg'aytirib borayotgan opa-singillarimiz faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Ayolning ko'zlari qachon kuladi? Qachonki, u ehtirom, e'zoz ko'rsa. Ammo ayolga nisbatan aytilgan bir og'iz noo'rin so'z, sovuq nigoh, zarb bilan uzatilgan qo'l uning hayotini ostin-ustin qilib yuborishi aniq. E'tiborlisi, yurtimizda xotin-qizlarning teng huquqligini belgilash, ularni jamiyatning faol a'zolariga aylantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, tazyiq va zo'ravonliklardan asrash borasida ham jiddiy ishlar amalga oshirilayotir. Bu borada Prezidentimizning 2024-yil 10-maydagi

«Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugun gul-gul ochilgan qizlar tabassumida, farzandini suyib quchgan onalar yuzida, duolari tilaklarga ulangan buvijonlar so'zida bu olam shodligi mujassam. Mehr-muhabbat, vafo-sadoqat, sabr-u qanoatni hayotining mazmuniga aylantirgan azizlarim, qoshingizda baxtning belanchagi sollanib tursin. Siz ila go'zal ko'rinar olam.

Bu borada so'z ketganida, go'zallik va ayolni qalban ardoqlagan shoirning yurak tug'yonlari ushbu misralarga to'kilgandek go'yo.

*Go'zallik – eng avval ko'zning shifosi,  
Dilga tug'yon solgan so'zning shifosi.*

*Go'zallik – quyoshdek porlaguvchi nur,  
Go'zallik – yashashga chorlaguvchi nur.*

*Go'zallar bahorning guliga o'xshar,  
Yurgan yo'llariga iforlar to'shar.*

*Go'zallar ko'zgusi – o'zbek ayoli,  
Go'zallar orzusi – o'zbek ayoli.*

*Kumushning ko'zidagi hayo – go'zallik,  
Ra'noning yuzidagi ibo – go'zallik.*

*Qodiriy qalamin uchidagi oy,  
Muhabbat mulkiga bo'lgan chiroy.*

*Oy, Quyosh bir taraf, sizlar bir taraf,  
Millat ayoliga yog'ilgan sharaf.*

*Guldan to'kiladi gulning shonasi,  
Go'zallik onasi – O'zbek onasi!*

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA.**



*Qoraqalpog  
tilidagi matn.*



*Rus tilidagi  
matn.*



# QAYISHGANNI XALQ SIYLAYDI

(Davomi.

Boshlanishi 1-betda.)

– **Nargiza opa, suhbatimiz 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bo'layotgani bois sizni bayram bilan chin dildan tabriklashga ijozat berasiz.**

– Rahmat. «Ayol dunyo beshigini tebratadi», degan qadimiy bir hikmat bor. Ezgulik, adolat va qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatdan saboq berib, dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan, millat va ona Vatan shuhratini yetti iqlimga doston qilgan buyuk bobokalonlarimizning aql-u zakovati mushfiq onalar mehri hamda duolarining ijobatidir.

Rivoyatlarda keltirilishicha, «Ayol kishiga ehtirom yuksak bo'lgan, onalari qadrlangan yurti aslo yengib bo'lmaydi. Zero, ular ma'naviy qudratga, ilohiy panohga ega». Darhaqiqat, ayollari ulug'langan yurtida tinchlik, osudalik, farovonlik hukm suradi, fayz-baraka arimaydi.

– **Siz 2025-yil ish faoliyatigizda nimalarga erishdingiz?**

– Hokimlik lavozimiga kirishganimning yigirma sakkizinchi kunida tumanimiz katta sinovga duch keldi. Turkmanistondan kirib kelgan kuchli shamol katta talafot keltirdi. Daraxtlar quladi, mashinalar yurolmay qoldi. O'shanda mavjud 22 mingta xonadondan 15 mingtasining tomi ko'chdi. Bu ham kamlik qilgandek, uch kundan so'ng shunaqangi yomg'ir quydi, o'zi ham bir sutka yog'di. Shundagina rahbarlik juda og'ir ekanligini tushundim. Tabiiy ofatning ertasi kuni Prezidentimiz kelib, bizga qalqon bo'ldi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

O'tgan yil faoliyatimizda samarali bo'ldi, erishgan yutuqlarimiz ham anchagina. Ayniqsa, xorijiy investorlar tomonidan loyihalar yo'lga qo'yilgani yaxshi bo'ldi. Masalan, BAA investorlari ishtirokida «Abu Dhabi Future Energy Company PJSC Masdar» kompaniyasi tomonidan yirik energetika infratuzilmasini yaratishga qaratilgan «Quyosh fotoelektr stansiyasini qurish» loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Xitoyning «China National Technical Import and Export Corporation» kompaniyasi tomonidan «CNTIC» pudratchi tashkiloti qurilish ishlariga jalb qilinib, «Amu-Buxoro-1» yangi nasos stansiyasida jami 8 ta, har birining quvvati 11,25



*Nargiza Ne'matova 1991-yilda Toshkent davlat tibbiyot instituti (hozirgi Tibbiyot akademiyasi) ni tamomlagan, mutaxassisligi vrach-terapevt. U tuman markaziy shifoxonasida turli lavozimlarda ishlagan. Keyinchalik tuman hokimi o'rinbosari — oila va xotin-qizlar bo'limi raisi, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatgan, 2020-yildan beri tuman hokimi lavozimida ishlab kelyapti.*

m/s bo'lgan yuqori unumli nasos agregatlari o'rnatildi.

Bundan tashqari, «Xalifa» mahallasi hududidagi «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zona»sida Xitoy davlati kompaniyasi va «Buxoro Gold Star Moto» MCHJ korxonasi hamkorlikda uch g'ildirakli yuk tashish mototsikllarini ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, 30 nafardan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlandi.

Shuningdek, kichik tadbirkorlik borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. M-37 avtomagistral yo'lida 30 dan ortiq xizmat ko'rsatish savdo maskanlari barpo etilmoqda. «Xalifa» mahallasidan o'tuvchi Olot shohko'chasida esa 24/7 rejimda faoliyat olib boruvchi 40 dan ortiq savdo maskanlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

– **Sizningcha, hokimlik tizimida ishni yanada yuqori pog'ona-ga ko'tarish uchun ko'proq nimalarga e'tibor qaratish kerak?**

– Tizimning samarali bo'lishi uchun ko'proq xonadonma-xonadon yurib, yoshlar va ayollar bilan uchrashish kerak. Muam-molariga yechim topishni faqat qog'ozga yozib qo'ymasdan, uni amalga oshirish lozim. Qolaversa, boqimandalik qusurini ularning ongidan chiqarish lozim. Ko'proq yoshlar bilan ishlashni yo'lga qo'yib, ustoz-shogird an'anasiga e'tiborliroq bo'lishimiz darkor.

– **Bilasiz, mamlakatimizda xotin-qizlarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bu masalada Olot tumanida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**

– Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli aholining bandlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Bizda ko'pincha ayollar va yoshlar

ishsizlik maqomini oladi. Shunday ekan, xotin-qizlar va yoshlarni doimiy ish bilan band qilish maqsadida, avvalo, yaratilayotgan ish o'rinlarini taklif qilyapmiz. Ro'zg'oridan ortishi qiyin bo'lgan ayollarga imtiyozli kreditlar ajratilib, uylarida issiqxona tashkil qilishmoqda, tikuvchilik bilan shug'ullanishmoqda, qoramol va parranda boqishmoqda. Ishlab turgan xotin-qizlarning qo'shimcha daromad topishlari uchun ham o'z xohishlariga ko'ra, shu tarzda imtiyozli kreditlar berilib, yashash sharoitlari yaxshilanmoqda.

Tushkunlikka tushgan ayollarga ko'pincha «baliq» emas, «qarmoq» beryapmiz. Ular o'sha «qarmoq»dan «baliq tutib» tirikchilik qilishadi. Ayni kunlarda ularning aksariyati, o'z yo'lini topib ketishdi.

– **Ish faoliyatingizda ushbu yil keskin burilishlar yili bo'ladimi, deb ishonasizmi, umuman 2026-yildan nimalarni kutyapsiz?**

– Aytishim mumkinki, bu yil faoliyatimizda tub burilish yili bo'lyapti. Bunda master reja asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Aholi turmush darajasini yaxshilash, zamonaviy shaharsozlik talablari-ga mos infratuzilmani shakllantirish hamda tumanning me'moriy qiyofasini yangilashga qaratilgan «Sohil bo'yi» loyihasi ham alohida ahamiyatga ega. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida tuman markazining obodonlashtirish darajasi oshib, hududning estetik ko'rinishi o'zgaradi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratiladi, ichki turizm salohiyati rivojlanadi.

Shuningdek, tumanimizning markaziy ko'chasida keng ko'lamli yangilanish ishlari boshlab yuborildi. Xususan, 24/7 rejimida faoliyat ko'rsatuvchi ushbu ko'chaning 450 metr trotuar qismi yuqori sifatli, mustahkam va zamonaviy dizaynga ega bezakli bloklar bilan yangilanmoqda. Bundan tashqari, 60 ta zamonaviy tungi yoritkichlar o'rnatilib, kechki paytlarda ham piyodalar va transport harakati uchun qulay hamda xavfsiz muhit yaratilmoqda.

**O'z muxbirimiz Mirzoqul AHADOV suhbatlashdi.**

*Buxoro viloyati.*



► **Law enforcement**

## BUILDERS OF THE FUTURE UNDER OUR PROTECTION

Senior lieutenant Omina Zoitova, an inspector-psychologist for juvenile affairs of the Almalyk city department of internal affairs, alongside captain Mehriddin Rakhmatov, is demonstrating great dedication in preventing juvenile delinquency. Through their

systematic cooperation with schools, parents, and community activists, a significant reduction in crime and offenses among teenagers has been achieved in the city.

Omina Zoitova emphasizes that an inspector-psychologist must be

more than just a supervisor; they must serve as a reliable advisor and guide for teenagers. Today, the future and well-being of the youth in Almalyk remain under the constant attention and reliable protection of such dedicated officers.



► **Probation service**

## CONTROL AND PRACTICAL ASSISTANCE

The personnel of the Probation department of the Fergana city department of internal affairs are carrying out systematic work with individuals under supervision. As noted by the department inspector, major Doniyor Zuhritdinov, the primary goal is to re-educate those who have strayed and prevent them from committing crimes again.

At a recent mobile court session, the punishment for two individuals who evaded their sentences was replaced with imprisonment, while two individuals who showed improvement were granted early conditional release. Additionally, during a labor fair, three supervised persons were employed, and four others were enrolled in free vocational training courses.

► **Public safety**

## MODEST KAMILA

Senior sergeant Kamila Reimboeva, an inspector of the squad for ensuring safety during social, political, and cultural events of the Patrol-post service battalion of the Sirdaryo region Department of internal affairs, stands out for her responsibility in maintaining public order. After graduating in mathematics from Gulistan state university, Kamila began her career in internal affairs through special courses at the Academy of the Ministry of internal affairs.



During her service, she has gained significant experience in communicating with citizens, maintaining order at mass events, and preventing the entry of dangerous objects. Major Mansur Abdurakhmonov, deputy commander of the battalion, highly values her discipline. Currently, Kamila is a first-year student at the distance learning faculty of the MIA Academy, striving for further professional growth in her chosen career.

► **Safe tourism**

## «I am the face of my country – I am the daughter of my uzbek people!»

In 2023, the Department for ensuring Safe tourism was established within the Jizzakh region Department of internal affairs, serving the Zamin and Arnasoy districts. As the only female inspector in this department, major Umida Egamova takes pride in representing the face of Uzbekistan to visiting tourists. At Zamin's «Suffa 2400», the National Park, and 147 other tourist sites, officers maintain public order around the clock and communicate directly in foreign languages.

The department staff not only ensures security but is also ready to provide immediate assistance and guidance to tourists. The main goal is to maintain Uzbekistan's reputation as a safe tourism country and to create a positive image of the tourism police for guests visiting Jizzakh.



► **Medicine**

## «HEALTH TRAIN» – IN KASHKADARYA

The «Health train», consisting of specialist doctors from the Central hospital of the MIA Medical department, the central polyclinic, and the «Uzbekistan» sanatorium, visited the Kashkadarya region. During the event, department employees, pensioners, and their family members, as well as veterans in need of assistance at home, underwent medical examinations and were provided with necessary medications.

As noted by lieutenant colonel Otabek Ergashev, head of the Medical department of the regional department of internal affairs, such events are crucial for strengthening the health of personnel and the early detection of diseases. In total, more than 886 people were examined, with 164 recommended for inpatient treatment, 245 for outpatient care, and about 50 for treatment in sanatoriums.



# HAR BIR XOTIN-QIZ – DAVLAT HIMOYASIDA

**Poytaxtimizning Chilonzor tumanida xotin-qizlar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda oilaviy nizolarning oldini olish borasidagi profilaktik tadbirlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda.**



Mazkur yo'nalishda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan «Yo'l xaritasi» tasdiqlanib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida tuman IIOFMB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari tomonidan keng jamoatchilik bilan hamkorlikda tizimli ishlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e'tibor nafaqat targ'ibot tadbirlariga, balki «xonadonbay» va «mahallabay» tizimi asosida har bir ayol bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazishga qaratilmoqda. Bu esa xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning ijtimoiy muammolarini joyida hal etish imkonini berishi bilan ahamiyatli.

– Oliy ta'lim muassasalarida 15 marotaba maqsadli tadbirlar o'tkazilib, talaba qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha zarur tushunchalar berildi, – deydi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, katta leytenant Diyora O'rozqulova. – Shuningdek, profilaktik va probatsiya ro'yxatida turgan ayollarning muammolarini o'rganish maqsadida 2-sonli IIB hududida o'tkazilgan sayyor qabul bir necha xotin-qiz-

larning muammolari ijobiy hal etilishida zamin bo'ldi.

Murakkab hayotiy vaziyatlar va ruhiy tushkunlikka tushib qolgan ayollar bilan ishlashda XQMB katta inspektorlarining xizmati katta bo'lmoqda. Xotin-qizlar bilan ishlash jarayonida har bir ayolning taqdiriga individual yondashish tamoyili asosiy o'ringa chiqqan. Xususan, katta leytenant Malika O'roqova va leytenant Sarvinov Xo'jaqulova tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanib, murojaat qilgan 71 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirilib, ularning xavfsizligi qat'iy ta'minlandi. Zo'ravonlik oqibatida chuqur ruhiy tushkunlikka tushib qolgan ayollarning 3 nafari esa kapitan Saodat Muhamedovaning amaliy ko'magi bilan Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markaziga joylashtirildi.

Leytenant S. Xo'jaqulovning sa'y-harakati bilan sog'lig'ida muammo bo'lgan 3 nafar ayol maishiy zo'ravonlikdan

jabrlangan shaxslarga shoshilinch tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan birlamchi ko'mak xonasiga yo'naltirildi va bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shuningdek, Toshkent shahar IIBB



HPB tomonidan o'tkazilayotgan «Men kuchli ayolman» dasturining 5-bosqichi doirasida aniqlangan, ruhiy ko'makka muhtoj va ishsiz 3 nafar ayol dastur ishtirokchisi sifatida ro'yxatga olindi.

Tizimli ishlar davomida HPB XQMB katta inspektorlari tomonidan mahalla faollari bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, inspektorlar o'zlariga birlashtirilgan hududlardagi kam ta'minlangan va moddiy yordamga muhtoj ayollar holidan muntazam xabar olmoqda. O'tkazilgan o'rganishlar natijasida qisqa davr ichida ko'makka muhtoj bo'lgan o'nlab xotin-qizlarga zarur oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilishi manzilli tashkil etildi.

Tuman ayollarini xavf-xatardan tezkor himoya qilish maqsadida inspektorlar tomonidan 300 nafardan ortiq xotin-qizlar «Mening inspektorim» mobil ilovasiga ulandi. Bu boradagi targ'ibot va texnik ko'mak ishlari tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Joriy yilning 18-fevralidan 1-martga qadar «Turmush» deb nomlangan 10 kunlik profilaktik tadbiri ham bo'lib o'tdi. Bu jarayonga ichki ishlar organlari xodimlari bilan bir qatorda, soha mutaxassislari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ham jalb etildi. Tadbir davomida tuman miqyosida 87 ta nizoli oila to'liq o'rganildi. Ajrim yoqasidagi va nizoli oilalar dardi tinglandi hamda mahalla yetilligi bilan birgalikda muammolari hal etildi. Himoya orderi talablarini jiddiy tarzda buzgan shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Nizoli oilalar yashaydigan xonadonlarning bir nechtasiga «tashvish tugmasi» o'rnatilib, oilaviy muhit sog'lomlashishiga erishildi. Bundan tashqari, tadbirlar davomida 180 ga yaqin ko'rgazmali targ'ibot materiallari tarqatildi.

Tumanda xotin-qizlar bilan ishlash katta mas'uliyat namunasiga aylanib, xodimlarning har bir xonadonga qonun himoyachisi sifatida kirib borishi parokanda bo'lish arafasida turgan oilalarni saqlab qolish va zo'ravonlikka chek qo'yish borasida o'z samarasini bermoqda. Maqsad – har bir ayol o'zining davlat himoyasida ekanini his qilishi va har bir oilada tinchlik-totuvlik barqaror bo'lishiga erishish.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.  
**Abu KENJAYEV**  
olgan suratlar.

Toshkent shahri.



## Soha fidoyisi

# NARGIZA OPANING «TASHRIF QOG'OZI»



Shirin shahar IIB Probatsiya guruhida yuzdan ortiq shaxslar nazoratda turadi. Ularning har biri bilan ishlashda turlicha yondashuv, muammolarini chuqur bilish taqozo etiladi. Olib borilgan nazorat, targ'ibot tadbirlari va ko'rsatilgan ko'maklarni tegishli hujjatlarda aks ettirib borish alohida mas'uliyatni talab qiladi. Bu ishda Probatsiya guruhi texnik xodimasi Nargiza Ahrorovaga yetadigani yo'q. Uzoq yillik to'plangan tajriba, mehnat faoliyati davomida shakllangan intizom, odamlar bilan ishonchli muloqot o'rnata olish qobiliyati uning «tashrif qog'ozi»ga aylangan.

– Nargiza opa o'z ishini chin dildan sevadi, haqiqiy fidoyi inson, – deydi Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Bekzod Azizov. – U huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni to'g'ri yo'lga boshlash, jamiyat uchun foydali ishga yo'naltirishga katta hissa qo'shmoqda.

Nargiza Ahrorova kundalik ishlarni puxta rejalashtirib oladi. Bugun qaysi nazorat ostidagi shaxsning hujjatlari bilan shug'ullanishini, qaysi shaxsni ishga joylashtirish bo'yicha qaysi korxona va tashkilotlar bilan bog'lanishni, kimning ahvolidan xabar olishni oldindan belgilaydi. Bu esa mazkur ishlarni bajarishga bir necha kun ilgari tayyorgarlik ko'rishiga imkoniyat yaratadi.

Lavhamiz qahramonining ko'magi asosida yil boshidan buyon o'ttizdan ortiq probatsiya nazoratidagi fuqarolar ishga joylashtirildi. Natijada ularning oilaviy, ijtimoiy

muammolari yechilishiga, qaytib jinoyat sodir etmasligiga zamin yaratildi.

Sardor Narimonov (ism-familiyalar o'zgartirildi) adashib jinoyat ko'chasi-ga kirganlardan. Unga ikki yillik axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Sardor shahardagi qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasiga ishga joylashdi. Oilasida ham, mahallasida ham o'z o'rnini qaytadan topdi. Yaqinda muddatidan oldin shartli ravishda jazodan ozod qilindi. Buning uchun Nargiza opadan minnatdor.

Bir so'z bilan aytganda, Shirin shahar IIB Probatsiya guruhi texnik xodimasi Nargiza Ahrorova o'z vazifalarini sidqidildan bajaradi. Ana shu fazilati tufayli ko'pchilikning hurmat-u e'tirofiga sazovor bo'lgan.


**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

## TABRIK

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida o'zining samarali mehnati, boy bilim va tajribasi bilan faol qatnashib kelayotgan Surxondaryo viloyati Denov tumani IIB migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Sadbaroy Jumayeva O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan mukofotlandi. Hamkasbimizni yuksak e'tirof bilan samimiy qutlaymiz, sharaflari va mashaqqatli xizmatlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

(Podpolkovnik S. Jumayeva to'g'risidagi maqola bilan gazetamizning keyingi sonida tanishishingiz mumkin).



## Vatan qahramonlarini unutmaydi

# EL-YURT UCHUN JONFIDO O'G'LO

1993-yilda Qashqadaryoda tug'ilgan Hosilbek chinakam ziyolilar xonadonida kamolga yetdi. Uning otasi Beknazar aka va onasi Dilorom opa o'rta ta'lim maktabida yoshlarga saboq bergan. Shuningdek, ikki opasi ota-onasining kasbini davom ettirmoqda.

Ma'rifatli xonadonda olingan tarbiya yosh o'g'lonning qalbida Vatanga muhabbat va mas'uliyat hissini uyg'otdi. U oilaning kenja farzandi, ota-onasining suyangan tog'i va faxri edi.

Hosilbek o'z faoliyatini 2022-yilda Yashnobod tumani IIOFMB kanselyariya ish yurituvchisi sifatida boshladi. Keyin IIOFMB JTSB saf bo'linmalari PPX otryadi inspektori sifatida toblanib, jamoat tartibini saqlashda jonbozlik ko'rsatdi. 2025-yilning fevralidan boshlab esa Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 2-batlyonida xizmatini davom ettirdi.

YPX inspektori sifatida jami 1392 ta huquqbuzarlikni aniqladi. Shundan 324 tasi qo'pol qoidabuzarliklar, ya'ni 14 nafar mast holatda rugla o'tirgan haydovchi to'xtatib qolingani, qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish, hujjatsiz boshqarish va svetofoarning qizil chirog'iga bo'ysunmaslik kabi 52 ta og'ir oqibatli holatlarga chek qo'ygan.

2026-yilning 25-fevral kichik serjant Hosilbek Eshnazarov hayotidagi so'nggi kun bo'ldi. Mirobod tumani Nukus ko'chasida o'z xizmat vazifasini o'tayotgan bir paytda tezlikni me'yoridan oshirib, boshqalar hayotiga xavf solayotgan, olib qochilgan avtomobilni to'xtatish

uning zimmasiga tushdi. Boshqaruvdagi voyaga yetmagan qonunbuzarning xatti-harakati katta fojiga sabab bo'lishi mumkin edi.



Hosilbekning oldida ikkita yo'l bor edi, yo chetga chiqib o'z jonini asrash, yoki yo'lni to'sib, begunoh insonlar hayotini saqlab qolish. U hech ikkilanmay, ikkinchi yo'lni tanladi. O'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan dahshatli to'qnashuvning oldini oldi...

Og'ir tan jarohati olgan Hosilbek zudlik bilan shifoxonaga yetkazildi. Qariyb uch kun davomida shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun bor imkoniyatni ishga solishdi. Ammo taqdiri azalning hukmi o'zgacha ekan. Har bir nafasi uchun

mardonavor kurashgan, o'lim bilan yuzma-yuz kelganda ham, o'z qasamyodiga sodiq qolgan o'g'lon 33 bahorni qarshi olayotgan bir paytda boqiy dunyoga rixlat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, kichik serjant Hosilbek Eshnazarov o'limidan so'ng «Jasorat» medali bilan taqdirlandi. Bu nafaqat qahramon xodimga, balki o'z burchiga sodiq qolgan bar-

cha soha vakillariga bo'lgan ehtirom ramzidir.

Uning farzandlari hali juda yosh. Ular otasining nima uchun uyga qaytmaganini so'rashganda, «Otangiz o'nlab insonlarni o'limdan qutqarib qolgan qahramon!» deb javob berishadi. O'g'illari ulg'ayganda, otasining «Jasorat» medalini qo'lga olib, uning izidan borib, yurt osoyishtaligi uchun xizmat qiladigan ichki ishlar organlari xodimi bo'lishsa, ne ajab.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



## Qonun va ijro

## YO'L HARAKATNI YOQTIRADI, TO'SIQNI EMAS

...Mahalla ko'chasi asfalt qilindi-yu, sun'iy yo'l to'siqlari paydo bo'ldi. Odamlar: «Open byudjet»dan o'zimiz yutib olganmiz, endi istaganimizdek xo'jayinlik qilamiz» deb kalta o'ylashgan ekan. Bu masalada ham tartib-qoida bor.

Ekologlar fikricha, yo'llardagi sun'iy to'siqlar, ayniqsa, shaharlarda hayot sifatini pasaytiradi, tirbandlikni kuchaytiradi va atrof-muhitga zarar keltiradi.

– Sun'iy yo'l to'siqlari natijasida avtomashinalarda har bir to'xtashdan keyingi qayta tezlashish yonilg'i sarfining ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa karbonad angidrid, azot oksidlari, uglevodorodlar hamda PM2.5 va PM10 kabi mayda qattiq zarralarning ko'payishiga olib keladi. Tahlillar ko'rsatadiki, yo'l to'siqlari ko'p bo'lgan hududlarda havoga chiqadigan zararli moddalar barqaror tezlikda harakatlana-digan joylarga nisbatan 60–90 foizga ko'p bo'ladi, – deydi Jizzax viloyati Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi Qobil Muhammadiyev.

Yo'llarda to'siqlarning noqonuniy o'rnatilishi harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, maxsus transport vositalari harakatiga xalal beradi. Shoshilinch yordam, yong'in xavfsizligi yoki tezkor xizmatlar har bir to'siqda qimmatli daqiqalarni yo'qotadi. Bu inson hayotiga daxl qiladigan vaziyatlarda

o'ta salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

– «Yo'l harakati to'g'risida»gi qonunning 23-moddasida yo'llarda (yo'l uchastkalarida) transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash tegishli vakolatli davlat organlarining axboroti asosida amalga oshirilishi belgilangan, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Yo'l infratuzilmasini nazorat qilish bo'limi katta inspektori, katta leytenant Muhammad-yusuf Sayfullayev. – Yo'llarda sun'iy yo'l to'siqlarini noqonuniy o'rnatish tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Qoidabuzarlik fuqarolarga BHMning 5 baravari, mansabdor shaxslarga BHMning 20 baravari miqdorida jarama solinishiga sabab bo'ladi.

Jizzax viloyati IIB JXX YHXB, viloyat Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi hamda shahar-tuman hokimliklari huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmalari mas'ul xodimlari hamkorligida shunday holatlarni bartaraf etish ishlari olib borilyapti. Mahalliy ichki ko'chalar, ayniqsa, tashkilotlar atrofida yo'llar nazorat ko'rigidan o'tkazilib, asossiz ravishda, o'zboshimchalik bilan o'rnatilgan yo'l belgilari va yo'l to'siqlari olib tashlan-



moqda. Birgina o'tgan yili 29 ta sun'iy notekislik, 10 ta shlagbaum va beton to'siq hamda 7 ta «Kirish taqiqlanadi» yo'l belgisi olib tashlandi.

Jarimaga tortish masalasiga keladigan bo'lsak, aholi birlashib amalga oshirgani sababli aynan bir shaxsni javobgarlikka tortish mushkul. Shu sabab fuqarolar bilan tushuntirish-targ'ibot ishlariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bunday choralar yo'llarda harakat ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash, ularning erkin harakatlashishiga sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda bir mulohaza. Taqiqlash yoki jarima bilan maqsadga erishish qiyin. Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak, zamonaviy shaharlar sun'iy to'siqlardan voz kechib, xavfsizlikni

ta'minlashning ekologik jihatdan maqbul va qulay usullarini tanlamoqda. Ko'tarilgan piyodalar yo'laklari (bizda ham maktablar oldida o'rnatilmoqda), yo'lni vizual jihatdan toraytirish, xavfsizlik orollari, rangli belgilar va tezlikni kuzatuv kameralari orqali nazorat qilish bunga misol. Bu yechimlarda haydovchi ko'proq tormozlashga majbur bo'lmaydi, lekin tezlik nazorat ostida bo'ladi. Umuman, haydovchi va piyodalar, shuningdek, uy-joyi ko'chalar bo'yida joylashgan har bir fuqaro o'zining jamoat joyida ekanini, har bir xatti-harakati boshqalar hayotiga ta'sir qilishi mumkinligini anglashi kerak.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

## Ekspert-kriminalistika xizmati

## HAQIQAT KO'Z ILG'AMAS IZLARDA YASHIRIN

Jinoyatlarning ildiziga yetish, haqiqatni aniqlash va adolatni qaror toptirishda ekspert-kriminalistika sohasi vakillarining o'rni beqiyos. Ular hodisa joyida qolgan har bir izni sinchiklab o'rganib, dalillarni ilmiy asosda tahlil qiladi va tergov jarayoniga aniq, ishonchli xulosalar taqdim etadi. Albatta, bunda zamonaviy kriminalistik uskunalar, tahlil usullari va boy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi.



Bulung'ur tumani IIB ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Sirojiddin Umarovning xizmat faoliyati kasbiga sadoqat, yuksak mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usi bilan uyg'unlashgan. Xizmat faoliyati davomida u turli toifadagi jinoyatlarni fosh qilishda ishtirok etdi.

Qahramonimiz uchun eng muhimi adolat ustuvorligi. Chunki har bir ish ortida alohida taqdirlar turadi. Shu bois u kasbiga sadoqat, intizom va halollik bilan yondashadi. Hodisa joyini o'rganish jarayonida har bir iz, har bir mayda detalgacha e'tibor qaratadi. Hamkasblari orasida u o'zining ishiga talabchanligi bilan hurmat qozongani ham shundan.

Mayor S.Umarov yosh xodimlarga o'z tajribasini o'rgatishdan erinmaydi. Har bir amaliy mashg'ulotda yoshlarga nafaqat kasbiy ko'nikma, balki mas'uliyat va fidoyilik tuyg'usini ham singdirishga harakat qiladi. Haqiqat ko'z ilg'amas jihatlarida yashirin bo'ladi, – deb uqtiradi. Uning puxta tahlillari tergovchilarning jinoyatni ochishda to'g'ri yo'nalish olishida qo'l kelmoqda.

– O'tgan 2025-yil yil davomida 14 ta jinoyatni «issiq izida» ochilishiga erishdi. Masalan, tumanimizning «Navbahor» MFYda yashovchi fuqaro D.I.ning savdo do'konidan katta miqdorda telefon apparatlari noma'lum shaxslar tomonidan o'g'irlab ketilgani holati yuzasidan do'konni ko'zdan kechirganda uch dona barmoq izini topdi. Maxsus bazadan surishtirilganda bu izlar voyaga yetmagan shaxsga tegishli ekan qo'lining ko'rsatkich va chap qo'lining jimjilog'i ekanini aniqlandi, – deydi viloyat IIB EKM boshlig'i, polkovnik Maqsud Qurbonov.

Sirojiddinning turmush o'rtog'i Husniyaxon Inatova ham o'zi bilan bir joyda xizmat qiladi. Tuman IIB Probatsiya guruhining texnik xodimasi.

Qahramonimiz kitob mutolaasini xush ko'radi, vaqt topishi bilan sportning qo'l jangi turi bo'yicha shug'ullanadi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



## Фахрийлар — фахримиз

# БУТУН УМР БИЗГА ҲАМРОҲДИР

– дейди Манзура опанинг шогирди Қосимжон Сатторов

**Шундай аёллар борки, улар қайси соҳада бўлмасин, зиммасига юкланган ҳар қандай оғир иш, мураккаб вазифани бекам-кўст уддалашга қодир. Ички ишлар органларида ҳам бундай аёллар анчагина топилади. Кўп йиллар тизимда муваффақиятли фаолият юритган, бугунги кунда кексалик гаштини сураётган истеъфодаги подполковник Манзура Каримовани мана шундай фахрийлардан бири, десак, сира муболаға бўлмайди.**

Манзура Каримова 1952 йилда Тошкент шаҳрида туғилган. Умумий ўрта таълим мактабини тугатгач, 1969 йили Тошкент политехника институти инженер-механика факультетига ўқишга кириб, автоматика ва телемеханика мутахассислиги бўйича диплом олади.

– Ёшлигимда жуда ғайратли эдим. Бир ерда узоқ ўтиролмасдим. Ўғил болалар билан тез чиқишиб кетардим. Бир куни келишган, формаси ўзига ярашган қизни кўриб қолдим. Нега мен шундай бўлолмайман, ундан қаерим кам дедиму, шартта Ўрта Осиё Транспортдаги ички ишлар бошқармасига бордим. Бошқарма бошлиғи Ҳаёт Салихов билан суҳбатлашгач, 1978 йил декабрь ойида штаб инспектори лавозимига ишга қабул қилиндим, – дейди М. Каримова. – Кейинчалик бошқармада сиёсий-тарбиявий ишлар бўйича бўлим бошлиғининг ёрдамчиси,



вояга етмаганлар билан ишлаш инспекцияси инспектори, тезкор қидирув бўлимида тезкор вакил, шахсий таркибни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш бўлимида катта инспектор лавозимларида, шунингдек, кадрларни жамлаш, тақдирлаш, рўйхатга олиш, касб маҳорати ва жисмоний тайёргарлик бўлимларида хизмат қилдим. 1998 йилда бошқарма Ахборот маркази бошлиғи

лавозимига тайинланиб, 2003 йил март ойида шу лавозимдан, подполковник унвонида пенсияга чиқдим.

Истеъфодаги подполковник М. Каримова санаб ўтган соҳавий хизматларнинг ҳар қайси ўзига хос йўналиш, ҳар бирининг ўзгача талаб ва мураккаб жиҳатлари борки, уларга доир меъёрий ҳужжатларни тез фурсатда ўрганиб чиқиш, ўзлаштириш, амалда

қўллаш ўз-ўзидан бўлмаган, албатта. Бунинг ортида тинимсиз изланиш, интилиш, машаққатли меҳнат, беором кунлар, ҳаловатсиз тунлар ётгани шундоқ ҳам аён.

Манзура Каримова турмуш ўртоғи Абдурасул Султонбоев билан икки нафар забардаст ўғил – Жавдатбек ва Санжарбекни тарбиялаб вояга етказишди. Ҳар иккаласи ҳам олий маълумотли бў-

либ, бугунги кунда улар тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиб, юртимиз тараққиётига муносиб улуш қўшмоқда.

– Хизматда йўл бошида учратганинг, ишдаги илк йўлбошчинг ким бўлгани бутун ҳаётингга таъсир қилар экан. Мен Манзура опадан кенг феълликни, оилага ва ишга муносабатни, топширилган вазифага масъулият билан ёндашишни, фуқаролар ва ҳамкасблар билан мулоқотдан тортиб хат-ҳужжатларни қисқа, лўнда тайёрлашни ўргандим. Буларнинг барчаси кейинчалик ҳаёт ва хизмат фаолиятимда жуда кўп асқатди, – дейди шогирдларидан бири истеъфодаги подполковник Қосимжон Сатторов. – Бугун меҳрибон ва кадрдон устозимни яқинлашиб келаётган 8 март – Халқаро хотин-қизлар куни билан чин қалбимдан табриклайман. Мустаҳкам соғлик, узоқ йиллар фарзандлари камоли, набиралари икболи учун дуоғўй бувижон бўлиб юришларини тилайман.

**Шухрат РЎЗИЕВ,**  
ўз мухбиримиз.

## Соҳа маликалари

Камила Гулистон давлат университетида математика йўналишида таҳсил олган. У иқтидорли талабалардан саналарди. Лекин дорилфунунни тугатиш арафасида тақдири ўзгариб кетди. Олийгоҳда ички ишлар органлари ходимлари жиноятчиликка қарши тарғибот тадбири ўтказишди. Гап орасида ИИБ Академияси Сержантлар таркибини тайёрлаш бўйича олий курсларига қабул бўлаётганини айтиб ўтишди.

Бу хабар Камиланинг қалбига чўғ солди. Эртаси куниёқ вилоят Ички ишлар бошқармасига бориб, талабларни ўрганди. Кейин эса ҳужжатларни тўплади. Жисмоний ва тиббий текширувлардан ўтди. Университетни тугатиб, яна ўқишга кетди. Фақат бу сафар кўпга эмас, олти ойга. Лекин шу ярим йиллик таҳсил давомида ҳуқуқий муносабатларга бўлган қарашлари буткул ўзгарди. Аҳоли билан ишлаш сирларини, ижтимоий психологияни ўрганди.

У ҳозирги лавозимга тайинланганида, жамоат хавфсизлиги ва тартибини сақлашга тайёрман, деб ўйлаганди. Лекин ўқиш бошқа, иш бошқа экан. Хизмат жараёнида ностандарт вазиятларга кўп дуч келди. Баъзи фуқаролар оммавий тадбирларга келгани-

**Сирдарё вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони Ижтимоий-сиёсий, оммавий, маданий тадбирларни ўтказишда хавфсизликни таъминлаш отряди инспектори, катта сержант Камила Рейимбоевани Гулистонда бўлиб ўтган байрамларда, спорт тадбирларида кўп учратганман. У ўз ишига масъулиятлилиги, ҳушёрлиги билан менда катта таассурот қолдирган.**


да, навбатни писанд қилмасдан, биринчи бўлиб ичкарига киришга уринишарди. У аёл киши бўлса ҳам, тезда бундай шахсларни тартибга солишнинг ҳадисини олди. Уларга босиқлик билан айтилган иккита гапнинг ўзи етарли бўларди, уялиб қолишарди.

Байрам тантаналарига ва бошқа тадбирларга ўзгалар ҳаётига хавф туғдирадиган ўткир тигли ҳамда бошқа буюмлар олиб кирилишининг олдини олиш чоралари кўрилади. Шу мақсадда ўтказиладиган оддий текширувга тоқатсизлик қиладиганлар ёки киноя билан қарайдиганлар ҳам бор. Улар «Тинч-осойишта замонда яшаётган бўлсак, шундай текширувларга ҳожат борми?», – деб сўрашади. Бундай эҳтиёткорлик барчанинг осойишталиги, хавфсизлиги кафолати экани тушунтирилганидан кейингина ҳодимларни қўллаб-қувватлашади.

– Камила Рейимбоева ўта масъулиятли, интизомли экани билан кўпчиликнинг ҳурматига сазовор бўлган, – дейди вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони командирининг ўринбосари, майор Мансур Абдурахмонов. – У жамоат хавфсизлиги доим ҳушёр бўлишни тақозо этишини яхши англайди.

Лавҳамиз қаҳрамони яқинда хизмат вазифасини бажариш чоғида Гулистон шаҳрининг «Тараққиёт» маҳалласидаги эски бозор ҳудудида уч аёл ўзаро жанжаллашаётганининг устидан чиқди. Маълум бўлишича, улар савдо қилиш учун жой талашишаётган экан. Ҳужжатлар ўрганилганида, учаласи туғишган опа-сингиллар бўлиб чиқди. Улар билан профилактик суҳбат олиб борилганида, қилмишларидан уялиб қолишди.

Камила ўз устида ишлашдан тўхтамайди. Ҳозир у ИИБ Академия-



сининг масофавий таълим факультетининг 1-курс тингловчиси. Нияти – танлаган касбида янада каттароқ натижаларга эришиш.


**Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,**  
ўз мухбиримиз.

*Сирдарё вилояти.*

## Tibbiyot

«SALOMATLIK  
POYEZDI» –  
QASHQADARYODA

IIV Tibbiyot boshqarmasi Markaziy gospitali, Markaziy poliklinikasi va «O'zbekiston» sanatori-yasining malakali shifokorlaridan iborat «Salomatlik poyezdi» Qashqadaryo viloyatida bo'ldi.



Dastlab viloyat IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasida tashkil etilgan tibbiy ko'rik davomida dispanser hisobida turgan bemorlar, pensionerlar va ularning oila a'zolari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bemorlar UZI, EKG, rentgenoskopiya qilindi, qon va peshob tahlillari olindi. Shuningdek, Qarshi shahri va Qarshi tumanida yashovchi boquvchisini yo'qotgan, ikkinchi shaxs yordamiga muhtoj faxriylar xonadoniga borilib, tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ularga tibbiy muolajalar ko'rsatilishi bilan birga, dori-darmonlar berildi.

Tadbirning ikkinchi kuni viloyat IIB Tibbiyot bo'limi Shahrisabz ambulatoriyasida Chiroqchi, Yakkabog' va Kitob tumanlarida yashayotgan shaxsiy tarkib, pensionerlar va ularning oila a'zolari terapevt, nevroxirurg, jarroh, kardiolog, travmatolog, pulmonolog, lor va oftalmolog ko'rigidan o'tishdi. Tibbiy ko'rik davomida ularning salomatlik borasidagi savollariga javob qaytarilib, ayrimlariga ambulator, statsionar va sanatoriy sharoitida davolanish uchun tavsiyalar berildi.

– Xizmat faoliyati katta mas'uliyat, jismoniy va ruhiy zo'riqishni talab etuvchi ichki ishlar organlari xodimlari uchun sog'liqni saqlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, – deydi viloyat IIB Tibbiyot bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Otabek Ergashev. – Xodimlarning salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika choralarini kuchaytirish maqsadida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikning o'tkazib kelinayotgani e'tiborlidir.

Tibbiy tekshiruvlar jaryonida 886 nafardan ortiq biriktirilgan shaxsiy tarkib, faxriylar va ularning oila a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu jarayonda ular 164 nafariga statsionar, 245 nafariga ambulator, 50 nafarga yaqiniga sanator-kurortlarda davolanish tavsiyasi berildi. Birlamchi kasalliklar aniqlangan biriktirilgan kontingent davolanishi uchun tegishli choralar ko'rildi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Qashqadaryo viloyati.

## Ma'naviy meros

## BAXSHILAR BULBULI

Men tug'ilib o'sgan go'sha – Oqtov va Qorotov bag'rida el nazariga tushgan oqinlar, baxshilar, shoirlar ko'p bo'lgan. Ular orasidagi eng mashhurlardan biri 1868-yilda Samarqand viloyati Nurota tumani (hozirgi Qo'shrabot tumani) Qo'rg'on qishlog'ida tavallud topib, kamolga yetgan ulug' baxshi-shoir Ergash Jumanbulbul o'g'lidir.



U «Kuntug'mish», «Yakka Ahmad», «Ali-bek bilan Bolibek», «Dalli», «Ravshan», «Qunduz bilan Yulduz», «Xushkeldi», «Xoldorxon», «Qiz Jibek», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Hasanxon», «Avazxon», «Avazning Farangga safari», «Nurali», «Xiromon» («Jahongir»), «Alpomish», «Yusuf bilan Ahmad», «Tulumbiy», «Qironxon», «Qumri», «Oshiq G'arib», «Vomiq bilan Uzro», «Varqa bilan Gulshoh» kabi 30 ga yaqin dostonlarni yod bilgan. Baxshi bobomiz kuylagan termalar juda ham ko'p.

Quvvayi hofizasi nihoyatda kuchli, ijro mahorati yuksak, so'zga chechan bo'lgan bobomizning o'zi ham barakali ijod qilgan. Uning «Tarjimai hol» dostoni, «Keldim», «Toshkent ta'rifida», «Tursunoy», «G'oz Olim», «Otajon Hoshim», «Shoirlarga rahbar Hodi», «Asov qizlar», «Bir hafta xo'p bo'ldi yog'in» kabi termalari shular jumlasidandir.

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1936-yilning oxirlarida Toshkentda bo'lib o'tgan baxshi-shoirlar anjumanida do'mbirasini qo'lga olib, o'zini shunday tanishtirgan ekan:

*Rayonim Nurota tog'lar orasi,  
Otim — Ergash Jumanbulbul bolasi.  
Qaridimmi, desam, ko'nglim qolasi,  
Tobora oshadi yoshdan havasi...*

Havas. Baxshi bobomiz avlodlar ko'ngliga solgan havas. Hozir har bir tuman-doshimiz ulug' bobomiz bitgan ushbu satrlarni yod olib, iftixor bilan aytadi. Mening ham yuragimda Ergash Jumanbulbul o'g'liga havas uyg'onib, ijodlaridan ilhomlanib ushbu satrlarni bitdim:

*Zotim aytsam, Qo'shrabotning belidanman,  
Bobom Ergash Jumanbulbul elidanman,  
Oqtov bilan Qorotovning tubidanman,  
Begi Do'stman, Temir Usmon dilbandiman,  
Ona yurtim – O'zbekiston farzandiman.*

Ergash Jumanbulbul o'g'li baxshichilik san'atini chuqur egallagan, do'mbirani mahorat bilan chertib, dostonlarni yoddan bulbulday jo'shib kuylagan, el suygan, yurt suygan ulug' baxshi edi. U nafaqat Qo'rg'on dostonchilari, balki o'zbek baxshi-shoirlarining peshqadami deya e'tirof etilgan. Zar qadrini zargar biladi. O'zbekis-

ton xalq shoiri Abdulla Oripov «O'zbek folklorining Navoiysi – Ergash Jumanbulbul o'g'li», deb bejiz ta'riflamagan. Bu baxshi-shoir qoldirgan merosning badiiy-estetik qimmatini, o'zbek xalqi ma'naviyatidagi munosib o'rnini tasdiqlaydi.

Baxshi-shoir Ergash Jumanbulbul tom ma'nodagi so'z zargari edi. Uning mehnatlari besamar ketmadi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining badiiy merosi keng o'rganilmoqda. Shoir haqida kitoblar nashr etildi, hujjatli film yaratildi. Nurota tumanida uning byusti o'rnatilgan. Qo'rg'on qishlog'ida uy-muzeyi bunyod qilindi, qo'lida do'mbira tutgan haykali haybat to'kib turibdi. Qo'shrabot tumanida maktab, Toshkent va Samarqand shaharlarida ko'chalar shoir nomi bilan atalgan.

Har yili tumanimizda Ergash Jumanbulbul xotirasiga bag'ishlangan baxshilar tanlovi va xalqaro festival o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2025-yil 10–12-may kunlari Qo'shrabot tumanida «Qo'shrabot navosi» respublika baxshilar tanlovi hamda «Qo'rg'on dostonchilik maktabi va Ergash Jumanbulbul o'g'li merosi» mavzusida



xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Tadbirlarda taniqli baxshilar, Turkiya, Xitoy va Qozog'istondan kelgan san'atshunoslar hamda O'zbekistonda baxshichilik yo'nalishi rivojiga hissa qo'shib kelayotgan olimlar, shoir va yozuvchilar, madaniyat xodimlari, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

**Bekmurod USMONOV,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
a'zosi, shoir.



# MEHR VA MATONAT TIMSOLI

**Ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar nafaqat xizmat burchiga sodiq xodim, balki jamiyatda mehr-shafqat, adolat va matonat timsoliga aylanmoqda. Mayor Dilafrō'z Allanazarova 2015-yildan buyon ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib, mas'uliyati, tashabbuskorligi va insonparvarligi bilan hamkasblari orasida hurmat qozonib kelmoqda.**

Dilafrō'z Allanazarova xizmat faoliyatini Qumqo'rg'on tumani IIBda voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektor sifatida boshladi. Keyinchalik Sho'rchi tumani IIB hamda Termiz davlat universitetida xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor vazifalarida faoliyat yuritdi. Hozir Termiz shahar IIB JXX Probatsiya guruhi inspektori lavozimida. O'tgan yil davomida probatsiya nazoratidagi 199 nafar shaxsning sud tomonidan belgilangan taqiy va cheklovlariga rioya etishini nazorat qildi. Bu raqam ortida, albatta, katta mehnat va individual yondashuv yotadi.

Uning tashabbusi bilan rahbarlar va tadbirkorlar ishtirokida 10 marta uchrashuvlar tashkil etildi. Natijada muammolar o'rganilib, 15 nafar shaxs tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga erishdi. 28 nafar xotin-qiz «Ayollar daftari»ga kiritilib, ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam oldi. Shu bilan birga, mehnat yarmarkalarida 35 nafar shaxs ish bilan ta'minlandi. 12 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitilib, sog'lom turmush tarziga qaytdi. Qolaversa, 15 kishiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini olishiga ko'maklashildi.

– Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nazorat obyekti sifatidagina emas, o'zgarishlarga qodir inson sifatida qarayman. Ularga ishonch bildirilsa, ko'pchiligi o'z hayotini yaxshilashga harakat qiladi, – deydi qahramonimiz.

Mayor Dilafrō'z Allanazarova nafaqat xizmat faoliyatida, balki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol. 2024–2025-yillarda viloyat IIB xotin-qizlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon xodima» va «Fidoi ayol xodima» ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

– Kitob insonni tarbiyalaydi, fikrini tiniqlashtiradi. Men muto-laadan hayotga oid ko'p saboqlar olganman. Ayniqsa, sabr, inson qadri va vaqtning qimmatligi haqida, – deydi u.

Dilafrō'z Allanazarova oilali, uch nafar farzandning mehribon onasi.



Turmush o'rtog'i – podpolkovnik Siroj Baratov Qiziriq tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari. Bir sohada xizmat qilish ularni yanada yaqinlashtirgan.

– Oilada ishonch birinchi o'rinda turadi. Turmush o'rtog'im mening eng yaqin maslahatchim va tayan-chim. Farzandlarimga esa eng avvalo halollik va mehnatsevarlikni o'rgataman, – deydi Dilafrō'z.

Qahramonimizning faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, undagi uch muhim fazilat yaqqol ko'zga tashlanadi: mas'uliyat, mehr va tashabbuskorlik. U nazoratdagi shaxslarning hayotiga befarq emas, ularni jamiyatga qayta integratsiya qilishni o'zining insoniy burchi deb biladi. Zero, uning xizmat faoliyati ortida raqamlar emas, insonlar taqdiri, qayta tiklangan umidlar va mustahkamlangan oilalar turibdi.

Bunday fidoi ayollar bor ekan, jamiyatimizda adolat, mehr va ishonch bardavom bo'ladi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Surxondaryo viloyati.*

**Kogon tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Mehriqul Jo'rayevaning bu sohani tanlashiga IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qismda faoliyat ko'rsatgan turmush o'rtog'i Umed Jalolov sababchi bo'lgan. Qolaversa, ikki ukasi ham harbiy oliygohlarni tugatib, hozirgi kunda Mudofaa vazirligiga qarashli chegara qo'shinlarida Vatanimiz sarhadlarini himoya qilib kelmoqda.**



Mehriqul Navoiy davlat pedagogika institutining pedagogika-psixologiya yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tugatgach, ta'lim sohasida faoliyatini boshlagan. Ammo ichki ishlar organlari tizimiga bo'lgan muhabbati tobora ortib borardi. Shu bois ham o'n yil bolajonlarga ta'lim-tarbiya bergan bo'lsa-da, ah-dini turmush o'rtog'i qo'llab-quvvatlagach, 2019-yilning mart oyida egallab turgan lavozimida faoliyatini boshladi.

– Turmush o'rtog'im bir kuni «Ichki ishlar boshqarmasiga hujjatlaringni olib bor, tanlov e'lon qilinibdi. Orzu-ing armon bo'lmasin», deb qoldi. O'shan-da mendan baxtli inson yo'q edi. Omadim chopdi, sinov imtihonlaridan o'tib, Kogon tumani IIBga ishga qabul qilindim, – deya Mehriqul ko'ziga yosh oldi va birozdan so'ng so'zini davom ettirdi. – Afsus, turmush o'rtog'imga yangi sohamdagi yutuqlarimni ko'rish nasb et-madi. 2024-yili baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi...

Kapitan M. Jo'rayeva tirish-qoqligi, topshiriqlarni beka-m-u ko'st uddalashi bilan hamkasblari orasida obro'-e'tibor qozondi, rahbariyat nazariga tushdi. U ustoz-u rahbarlarning ishonchini oqlayotgani, o'tkazilayotgan ommaviy, madaniy, o'quv hamda sport mashg'ulot-larida faol ishtirok etishi bilan ajralib turadi. Ayni paytda yosh

xodimlarga sohaning sir-asror-larini puxta o'rgatib, shogirdlar ham tayyorlayapti.

M. Jo'rayeva faoliyati davomida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, munosib rag'batlantiril-gan. 2023-yilda boshqarma faxriy yorlig'i, 2024-yilda Ichki ishlar vazirining pul mukofoti, yaqinda esa «To'maris» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ayolning nigohida qachon mamnunlik zohir bo'ladi, de-gan savolga hech ikkilanmay, farzandlarining istiqboli haqida so'z yuritganda, deb javob be-rish mumkin.

– O'g'illarim ikki qanotimdir, – deydi lavhamiz qahramoni. – Murodbek 10-sinfda, Mir-fayzjon 4-sinfda tahsil oladi. Ularni komil inson qilib voyaga yetkazish maqsadida o'qishlari-ga alohida e'tibor qaratyapman. Kuni kecha Murodbek ingliz tili fani bo'yicha sertifikatni qo'lga kiritdi. U tergovchi, Mirfayzjon esa ota kasbini egallab, harbiy bo'lmoqchi...

Farzandlari haqida g'ururla-nib so'zlayotgan Mehriqulga boqib bir haqiqatni his qildim: ayol uchun eng oliy baxt – ona-lik baxti. U bolalari uchun nima-lar qilmaydi, qanday to'siqlarni yengib o'tmaydi, deysiz?! Meh-rigul ham ana shunday baxtli ayollardan.

**Mirzoqul AHADOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Buxoro viloyati.*



## Halollikni shior qilgan xodimlar

## PORADAN NAJOT YO‘Q

Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasida profilaktik tadbirlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari muntazam o‘tkazilayotganiga qaramay, ayrim fuqarolarning hanz «Pora bilan masalani hal qilish mumkin» deb o‘ylashi achinarli hol. Vaholanki, kishining sodir etgan qonunbuzarligini pora yordamida xaspo‘shlashga harakat qilishi yanada og‘irroq javobgarlikka olib keladi.

Quyidagi voqea bunga yaqqol misol. Navoiy viloyati Uchquduq tumani IIB TQX xodimi, mayor Mirqosim Bobonorov 1993-yilda tug‘ilgan A.B. o‘z xonadonida fohishaxona tashkil etganini aniqlab, qonun doirasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi. Fuqaro javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida xodimga 1000 AQSH dollari taklif qiladi. Mayor M. Bobonorov unga bu

qilmishi jinoyat ekanligini tushuntiradi. Ammo fuqaro bir necha bor telefon orqali xodimni o‘z taklifiga ko‘ndirishga urinadi.

Mayor M. Bobonorovning bildirgisi asosida IIV SHXBB Navoiy viloyati bo‘yicha bo‘limi hamda Uchquduq tuman prokuraturasi hamkorligida tezkor tadbir o‘tkaziladi. Tadbir jarayonida qonunbuzar 10 million so‘m pul mablag‘ini pora sifatida xodim-



ga bermoqchi bo‘lgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olinadi.

Holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ayni vaqtda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Mazkur voqeaning saboq bo‘ladigan jihati shun-

daki, qonun himoyachilarning halolligiga shubha bilan qarayotgan ayrim shaxslarning yuqoridagi kabi qilmishlari o‘zlari uchun qimmatga tushyapti. Ichki ishlar organlari safida qasamyodiga sodiq, Vatani hamda xalqiga ha-

lollik bilan xizmat qilishni oliy burchi deb biladigan huquq-tartibot posbonlari mutlaq ko‘pchilikni tashkil etadi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

## Ehtiyot bo‘ling: firibgar!

## «IJARAGA ARZON UY BOR...»

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizga tobora kengroq kirib bormoqda. Bu makonda e‘lon qilinayotgan turli xabarlar, har xil yo‘nalishdagi maslahatlar deysizmi, xullas, istalgan mavzu bo‘yicha ma‘lumot olish imkoniyati yaratilgan. Bunday ma‘lumotlar virtual olamda shunchalik ko‘p joylanganki, hatto ayrim paytlari haqiqatni yolg‘ondan ajratish qiyin bo‘lib qolmoqda. Shu bois ham firibgarlik jinoyatlari aksar hollarda aynan ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalangan holda sodir etilmoqda.

Ixtiyor Razzoqov (ism-sharifi o‘zgartirildi) Qoraqalpog‘istonning chekka tumanlaridan birida tug‘ilib voyaga yetgan. U oliy ta‘lim muassasasida tahsil olish niyatida Nukus shahriga kelgandi. Test sinovlarida omadi chopmay, o‘qishga kira olmadi. Shundan so‘ng qishloqda o‘zgalarining gap-so‘ziga qolmaslik uchun uyiga qaytib borishni o‘ziga ep ko‘rmasdan, shu yerdan ish qidirishga tushadi.

Katta shaharda imkoniyat ko‘p emasmi, tez orada bir do‘konga sotuvchi bo‘lib ishga kiradi. Bu orada ishxonasiga yaqin joydan ijaraga uy ham topadi. Keyinchalik o‘zi kabi qishloqdan kelgan tanishlariga ijaraga uyidan ma‘lum vaqt uchun joy ajratib, buning evaziga pul olib turadi. Qarabsizki, bir-ikki oy ichida uncha-muncha mablag‘ jamg‘arishga ulguradi. Shu tariqa uning ilk «ishbilarmonlik faoliyati» boshlanadi.

Ixtiyor endi puxta reja asosida ish ko‘rishga kirishadi. Dastlab shahardagi mitti tumanlarning biridan ijaraga egasiz uy topadi. Keyinchalik ijtimoiy



tarmoqqa ushbu uyning ijaraga berilishi to‘g‘risida e‘lon joylashtiradi. Haftalab ish bilan shaharga kelgan kishilarga uyni ijaraga beradi. Ba‘zan bunday mijoz topilmay qolganida uyni kunlik ijaraga berishni ham eplaydi.

Vaqt o‘tgan sari Ixtiyor-dan ijaraga uy so‘raydiganlar soni ko‘payib, shunga yarasha undan tushadigan pul miqdori ham ortib borardi. Hattoki ayrim paytlari ikki-uch xaridor birdaniga qo‘ng‘iroq qilib, ijaraga uy so‘rardi. Ammo ijaraga uyi bitta bo‘lgani bois, keyingi

xaridorlarga rad javobini berishga to‘g‘ri kelardi.

Bunday holatlar bir necha bor takrorlanganidan so‘ng Ixtiyor qaltis ishga qo‘l urishga jazm etadi. Rejasiga ko‘ra, uyali telefoniga qo‘shimcha raqam sotib olib, shu raqamga ochilgan ijtimoiy tarmoqlarda «Ijaraga arzon uy bor» degan mazmunda e‘lon joylashtirishni boshlaydi. Aslida esa boshqa ijaraga uy bo‘lmay, niyati faqat sodda mijozlardan pul undirish edi. Buning uchun o‘zining emas, balki tanishlaridan birining bank

plastik kartasidan vaqtinchalik foydalanadi.

Tabiiyki, ijaraga narxi arzonligini ko‘rib, unga qo‘ng‘iroq qiladiganlar ko‘paydi. Shundaylardan biri e‘londa ko‘rsatilgan, 22-mitti tumanda joylashgan uyni ikki kunga ijaraga oladigan bo‘ladi. Buning uchun kelishilgan pulni Ixtiyor ko‘rsatgan bank plastik kartasiga o‘tkazib, kalitni ham oladi. Ammo aytilgan manzilga borganda, xonadon egasi umuman boshqa kishi bo‘lib chiqadi. Bundan, hayron bo‘lib Ixtiyorga qo‘ng‘iroq

qilganida, uning telefon raqami o‘chirilgan edi. Shundan keyingina aldan-ganini tushunib yetadi.

Oradan biroz vaqt o‘tib, «Nukus kvartira» Telegram guruhida I.Razzoqov yangi telefon raqamini ko‘rsatgan holda arzon ijaraga uyi haqida e‘lonni joylashtiradi. Bu safar uning aldoviga chuv tushgan L.Qunanbayev bo‘ldi. Xuddi shunday tarzda yana 3 nafar fuqaroni aldab, pulini qo‘lga kiritgan Ixtiyor «ish» bundan buyon shunday davom etadi deb qattiq adashgan edi.

Ijaraga uy so‘rab qo‘ng‘iroq qilganlar aldanganini tushunib yetgach, ichki ishlar organlariga murojaat qilishdi. Shundan so‘ng tez orada I.Razzoqov qo‘lga olinadi. Sud tomonidan unga boshqa fuqarolarga yetkazgan zararni qoplash majburiyati yuklanib, qilmishiga yarasha jazo tayinlanadi.

Yuqoridagi voqea hamyurtlarimizni ijtimoiy tarmoqlardagi har qanday taklif yoki xizmatdan foydalanish chog‘ida ehtiyot bo‘lishga undaydi, deb o‘ylaymiz.

**Umida ORAZBAYEVA,**  
podpolkovnik.  
**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi.



## Bu — mening onam

### KO'ZINGIZDA QUYOSH KO'RAMAN!

Dunyoda mehr-saxovatning chegarasi, ezgu va xayrli ishlarning o'lchovi, savobning hajmi bo'lmaydi, degan edi maktabimizga uchrashuvga kelgan shoir. Men buni munis va mo'tabar onajonim qalbidagi bizga bo'lgan mehridan, kasbiga sadoqatidan bildim.

Onam — podpolkovnik Nigora Yodgorova viloyat IIB JXX HPB boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimida xizmat qiladi.

Onamning ham ishga, ham uy yumushlariga birdek ulgurishlariga qoyil qolaman. Ba'zan ishdan horg'in keladilar, ammo buni bizga sezdirmaslikka intiladilar. Har doimgidek uy yumushlarini bajarib, kechki taom tayyorlaydilar. So'ng o'qishimizni, qo'shimcha dars va sport mashg'ulotlarimizni so'rab-surishtiradilar. Bir kuni telefonda kimlargadir taskin va dalda berayotganlari beixtiyor qulog'imga chalindi, hatto ko'zlarida yosh qalqiganini ko'rdim.

Bolalikdan rasm chizish, dizaynerlikka qiziqaman. Bu — ota kasb. Ammo ba'zan onamning o'ziga yarashgan formasini ko'rib, onam kabi posbon bo'lsammikan, degan xayol o'ziga tortib ketadi. Ammo onam doimo «Bolam, kim bo'lsang ham kasbingni sev, unga mehr qo'y, yaxshi odam bo'l. Axir, sen yolg'iz o'g'limiz, umidimiz, ishonchimizsan», deyдилar. Bu gaplar meni bir sohaning etagidan mahkam tutishga undaydi.

Onajon, men ko'zingizda doim quyosh ko'raman. Bayramingiz muborak bo'lsin, baxtimizga yurtimiz tinch, sizdek onalar sog'-omon bo'lsin!

**Sunnat BAXTIYOROV,**  
11-sinf o'quvchisi.

Samarqand viloyati.



## ZULFIYANI ESLAB



IIV Akademiyasida atoqli shoir **Zulfiya Isroilova** tavalludiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi **Muhtarama Ulug'ova** hamda **Zulfiya** nomidagi davlat mukofoti sovrindori **Mohinur Sotvoldiyeva** ishtirok etdi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan mehmonlar Zulfiyaxonimning serqirra ijodi, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni, ayol sha'ni va qadr-qimmatini

ulug'lash yo'lidagi xizmatlari haqida atroflicha fikr bildirdilar. Shoiraning she'rlari yoshlarda ezgulik, vatanparvarlik va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Tadbir samimiy muloqot ruhida o'tib, ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Bunday tadbirlar yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Ustoz-shogird

— Otam Normo'min Turanqulov uzoq yillar ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib, kapitan unvonida yorug' yuz bilan pensiyaga chiqqan edi, — deydi Yunusobod tumani «Uvaysiy» mahallasi profilaktika katta inspektori, mayor **Zuxrjon Turanqulov**. — Ikkinchi doim hamfikir edik, u kishi mening eng birinchi ustozim bo'lgan. Hozir otam oramizda yo'q, ammo hayotining so'nggi kunlarida ham mas'uliyatli xizmatim haqida qayg'urib nasihat qilgani kechagidek quloqlarim ostida jaranglab turadi. Bugun otamdan, ustozlarimdan o'rganganlarimni yosh xodimlarga boyitib yetkazishga harakat qilaman.

## HAR SUHBATI «MAHORAT DARS»



Mayor **Zuxrjon Turanqulov**, qariyb 28 yildirki, tizimda xizmat olib boradi. Shogirdlari juda ko'p. U sohada xizmat boshlagan yosh xodimlarga jonkuyar ustoz, kezi kelganida, bag'rikeng otadek maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatib, yillar davomida orttirgan tajribasini o'rgatishdan erinmaydi.

— Huquqni muhofaza qilish akademiyasida tahsil olib, xizmat boshlaganimga ko'p vaqt bo'lgani yo'q, — deydi «Uvaysiy» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant **Bobur Tojimboyev**. — Huquq-tartibot sohasiga yoshligimdan qiziqqanman. Shuning uchun huquqshunoslik yo'nalishida o'qidim. Biroq ushbu sohada ishlash uchun faqatgina nazariy bilimning o'zi yetarli emas ekan. Shu o'rinda ustoz borasida omadli ekanligimni aytib o'tishim kerak. Hozirda ustozim — mayor **Zuxrjon Turanqulov**ning maslahat, tavsiyalari yordamida nazariy bilimlarimni amaliyotga uyg'unlashtirishim oson kechmoqda. Ustozimdan avvalo aholi bilan ishlashni, muomala madaniyatini, murosa qilishni o'rgandim. Muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho berish, masalaning yechimini qonun talablaridan kelib chiqqan holda topish malakasini tobora yaxshiroq o'zlashtiryapman. Aslida, ustozim bilan xizmat jarayoni haqidagi har

bir suhbatimizni «mahorat darsi» deyish mumkin.

Ichki ishlar organlaridek mas'uliyatli sohada har bir xodim uchun bildirilgan ishonchni oqlash — sharaf. Bunday ezgu maqsad yo'lida ustoz-shogirdlik an'anasi eng muhim omillardan biridir.

— Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan, ziyrak, shijoatli yoshlar ishimizning davomchilaridir, — deydi mayor **Zuxrjon Turanqulov**. — Leytenant **Bobur Tojimboyev** xizmatining ilk kunlaridanoq o'zining zukkoligi, tirishqoqligi bilan e'tiborimni tortdi. To'g'ri, u hali yosh, biroz shoshqaloqligi bor. Ammo o'z ustida ishlashdan erinmaydi, tanqidni to'g'ri qabul qiladi. Uning kelajakda malakali kadr bo'lib yetishishiga ishonchim komil.

Ustoz-shogirdlik an'anasiga kecha, bugun va ertani bir-biriga bog'lovchi ko'prik deya ta'rif berish mumkin. Bunda ustozning fidoyiligi, shogirdning shaxti birlashsa, albatta, qaysi kasb yoki xizmatda bo'lmasin, shu sohaning mohir mutaxassisi shakllanadi. Oramizda Mayor **Zuxrjon Turanqulov**dek jonkuyar ustozlar, leytenant **Bobur Tojimboyev** singari shijoatli yosh xodimlar bor ekan, sohaning ertasi ishonchli qo'llardadir.

**Gulnoza TURGUNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



## HAYOTINGIZ BAXTGA TO'LA BO'LSIN

Tarixning barcha bosqichlarida ayol oila tayanchi, milliy-ma'naviy qadriyatlar himoyachisi va kelajak avlod tarbiyachisi bo'lib kelgan. Aynan ayolning donoligi, sabr-toqati va marhamati, ichki kuchi va mas'uliyati tufayli jamiyat mustahkamlanadi, kelajak avlod sog'lom ma'naviy asoslarda shakllanadi.

Qardosh Ozarbayjonda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash, oila institutini kuchaytirish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi faol ishtirokini ta'minlash yo'nalishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu oqilona siyosat ayollar salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishiga sharoit yaratmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi tarixiy va ma'naviy qadriyatlar mushtarakligi, ikki davlatning do'stlik va qardoshlik munosabatlari o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirishga zamin yaratmoqda. Xotin-qizlarning ta'lim,

madaniy va ijtimoiy sohalaridagi faol ishtiroki, tashabbuslari ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalar mustahkamlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shilmogda.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatadigan Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi xotin-qizlarning madaniy va ijtimoiy loyihalardagi ishtirokiga alohida ahamiyat qaratadi. Markazimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarda ayollarning faolligi, ijodkorligi va tashabbuskorligi madaniy hamkorlik rivojiga muhim ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aziz xonimlar! Sizlarni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan samimiy tabriklayman. Barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt-sodat, farovonlik, yangi yutuqlar va bitmas-tuganmas ilhom tilayman. Hayotingiz baxtiorlikka to'la bo'lsin!

**Akif MARIFLI,**  
Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat  
markazi direktori, tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori.



### Dolzarb mavzu

## KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA ILMIY YONDASHUV – DAVR TALABI

**So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Axborot al-mashinuvi tezlashdi, davlat boshqaruvi, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy munosabatlar tobora raqamli makonga ko'chmoqda. Biroq ushbu ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda, internet tarmoqlari orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlar ko'lami va murakkabligi ham ortib bormoqda.**

Kiberjinoyatlar o'zining yashirinligi, transmilliy xususiyati va yuqori texnologik darajasi bilan an'anaviy jinoyat turlaridan keskin farq qiladi. Ular shaxsiy ma'lumotlarning tarqatilishi, moliyaviy resurslarga tajovuz, davlat axborot tizimlariga qonunga xilof ravishda aralashuv orqali milliy xavfsizlikka real tahdid solmoqda. Shu bois kiberjinoyatlarga qarshi kurashni faqat jinoyat-huquqiy choralar bilan cheklab qolmasdan, ularning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan omil va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvni kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish borasida muayyan huquqiy va tashkiliy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning profilaktik salohiyati to'liq ishga solinmagan. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi, aholining axborot xavfsizligi madaniyati, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holat kiberjinoyatlarning oldini olish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda «kiberjinoyat» tushunchasi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari va internet tarmoqlaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar majmui sifatida

lashuv. Ushbu jinoyatlar ko'pincha aholining raqamli savodxonligi pastligi va axborot xavfsizligi qoidalariga yetarli darajada rioya etilmasligi bilan bog'liq.

Kiberjinoyatlarning oldini olish tizimi davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu tizim huquqiy, tashkiliy,



talqin etiladi. Jinoyat subyekting masofaviy va anonimligi, jinoyat sodir etish jarayonining yuqori tezkorligi, transmilliy xususiyatga egaligi, aniqlash va isbotlashning murakkabligi kiberjinoyatlarni an'anaviy jinoyatlardan tubdan farqlaydi hamda ularning oldini olishda maxsus yondashuvni talab etadi.

Amaliyot tahlili internet orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'layotganini ko'rsatadi: shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy egallash (phishing, hacking), elektron to'lov tizimlari orqali firibgarlik, zararli dasturlarni tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar orqali aldov va manipulyatsiya, axborot resurslariga noqonuniy ara-

texnologik va ma'rifiy yo'nalishlardan iborat. Qonunchilik bazasini muntazam ravishda takomillashtirib borish, maxsus kiberxavfsizlik bo'linmalari faoliyatini kuchaytirish, zamonaviy axborot himoyasi vositalari, monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aholining, ayniqsa, yoshlarning axborot xavfsizligi madaniyatini oshirish profilaktikaning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar kiberjinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish uchun milliy kiberxavfsizlik strategiyasini yanada rivojlantirish, xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarga asoslangan profilaktik tahlil tizimlarini

joriy etish hamda profilaktik faoliyatda ilmiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar internet tarmoqlari orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlar zamonaviy jinoyatchilikning eng murakkab va xavfli ko'rinishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Ularning transmilliy xususiyatga egaligi, anonimlik va yuqori tezkorlik omillari profilaktik faoliyatda an'anaviy usullar yetarli samara bermayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois kiberjinoyatlarning oldini olish tizimi kompleks va tizimli yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Tadqiqot jarayonida kiberjinoyatlarni samarali profilaktika qilish huquqiy, tashkiliy, texnologik va ma'rifiy chora-tadbirlarning uzviy uyg'unligi asosida amalga oshirilishi zarurligi aniqlandi. Jumladan, kiberjinoyatlarga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy monitoring va tahlil texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aholining axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish kiberjinoyatlarning oldini olishda muhim profilaktik omil sifatida namoyon bo'ladi. Fuqarolarda internetdan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni rivojlantirish kiberjinoyatlarga qarshi kurashning uzoq muddatli va barqaror natijalarini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, internet tarmoqlari orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlarning oldini olish tizimini takomillashtirish davlat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ilgari surilgan ilmiy xulosa va takliflar kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Shohruxbek MIRZAJONOV,**  
Andijon viloyati IIB huzuridagi  
Tergov boshqarmasi katta  
tergovchisi, podpolkovnik.

## Kasaba uyushmalari faoliyatidan

# XODIMLAR MANFAATI YO'LIDA

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasining 2025-yil yakunlariga bag'ishlangan hisobot konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda vazirlik rahbariyati, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi vakillari hamda soha mutaxassislari ishtirok etib, o'tgan yili xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan ishlarni atroflicha sarhisob qildilar.**

Anjuman doirasida Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, polkovnik D.Sattarov so'zga chiqib, tizimda ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash va kadrlar bilan ishlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini alohida qayd etdi. Ma'ruzachilar – IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshqarma boshlig'i, polkovnik J. Sultonov va IIV Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi raisi X. Maxsumovlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda 2023–2025-yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasi doirasida bajarilgan ishlar salmog'i tahlil qilindi. Xususan, xodimlarning ish haqi va mukofot pullari o'z vaqtida to'lab borilgani, bayramlar arafasida moddiy rag'batlantirish va



ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga manzilli yordam ko'rsatish tizimli yo'lga qo'yilgani aytib o'tildi.

Konferensiyada jamoa shartnomasi ijrosi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada Birlashgan kasaba

uyushmasi qo'mitasi mutaxassisi A.Sattarov 2025-yilda shartnoma shartlarining bajarilishini tekshirib boruvchi komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar va tuzilgan dalolatnomalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Shuningdek, tadbirda shaxsiy tarkibning salomatligini mustahkamlash masalasi asosiy mavzulardan biri bo'ldi. IIV Tibbiyot boshqarmasi hamda uning joylardagi bo'linmalari, tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan sifatli tibbiy xizmat, «Jar» va «Dinamo» sport majmualarida yaratilgan sharoitlar xodimlarning jismoniy chiniqishida muhim omil bo'lmoqda. Qolaversa, hisobot yilida ko'plab xodimlar sanatoriya va dam olish maskanlariga yo'llanmalar bilan ta'minlandi, ichki turizm doirasida mazmunli hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari Q. Qirg'izaliyev va Federatsiya raisining maslahatchisi H. Sharipovlar tizimdagi ijtimoiy sheriklik va jamoaviy kelishuvlarning ijrosini yuqori baholadilar.

Yakunda nafaqat o'tgan yilgi faoliyatga baho berildi, balki istiqboldagi rejalar ham belgilab olindi. Taftish komissiyasining yangi tarkibi tasdiqlanib, 2026–2028-yillarga mo'ljallangan yangi jamoa shartnomasi qabul qilindi.

**O'z muxbirimiz.**

## Profilaktik tadbir

# MEN KUCHLI AYOLMAN

**«Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilishi belgilangan ustuvor yo'nalishlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha «Yo'l xaritasi»da joriy yilning 25-fevralidan 1-apreligacha qadar «Men kuchli ayolman» tadbiri mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilishi belgilangan edi. Yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasida ana shu profilaktik tadbirga start berildi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, Prokuraturasi, Adliya vazirligi, IIV JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idoralarning mas'ul xodimlari ishtirok etishdi.**

– Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqarish, bir so'z bilan aytganda, opa-singillarimizni jamiyatning teng huquqli, faol va tashabbuskor a'zosiga aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ammo, shunga qaramasdan, jamiyatimizda xotin-qizlarning huquqlarini cheklash, ularga turli

tazyiq va zo'ravonlik qilish holatlari hamon uchrab turibdi.

Shu boisdan o'tkazilayotgan tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan va hayotiy qiyin vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, kasbga yo'naltirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordam ko'rsatishdan iborat.



Shuningdek, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ham ko'zda tutilgan, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik X. Reymlulova.

Tadbir davomida ishtirokchilarga xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati, shuningdek, bunday qilmishlarni sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash bo'yicha tushunchalar, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida atroflicha ma'lumot-

lar berildi. Shuningdek, O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasi a'zosi Muhabbat Doshekenova tomonidan psixologik trening o'tkazildi. Tadbirning badiiy qismida esa san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar qatnashchilariga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, bu kabi tadbirlar jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan xotin-qizlarga ko'mak ko'rsatish maqsadida katta yo'lga chiqqan karvon sanaladi. Ishonamizki, bunday xayrli sa'y-harakatlar kelgusida o'zining ijobiy tomonlari bilan bo'y ko'rsatadi.

**Bibinaz NURULLAYEVA,**  
podpolkovnik.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*



## КЎКЛАМ НЕЪМАТЛАРИ

Баҳор келиб, табиат секин-аста уйғонишни бошлаган паллада аксарият кишиларда кўз тиниши, ҳолсизлик, бош айланиши каби ҳолатлар кузатилиб, организмда турли витамин ва минералларга эҳтиёж сезилади. Бу даврда табиий кўкатлардан тайёрланган турли таомларни тановул қилиш организмнинг эҳтиёжини қондиради. Бундай табиат неъматлари қаторига исмалоқ ва ялпизни кириштиш мумкин.

Барглари юмшоқ, яшил ва сершира бўлган **исмалоқ** таркибида темир, кальций, мис, рух, калий, магний моддалари, шунингдек А, С ва К витаминлари кўп миқдорда учрайди. Шу сабабли исмалоқ камқонликнинг олдини олишда,



иммунитетни мустаҳкамлаш ва суяклар ҳолатини яхшилашда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, исмалоқ асаб тизимида муаммолар юзага келишига йўл қўймайди, хавфли ўсмаларнинг ривожланиш жараёнини сусайтиради. Бу кўкат таркибидаги бетакаротин, лутеолин каби моддалар кўриш қобилиятини яхшилашга ёрдам беради.

Исмалоқ ҳазм жараёнини яхшилаш, вазн ташлаш, организмни тозалаш ва қон айланишини меъёрлаштириш учун ҳам тавсия этилади.

У паст калорияли маҳсулот бўлгани учун парҳез таомлар сирасига ҳам киритилади.

Исмалоқни ҳам хом, ҳам пиширилган ҳолда истеъмол қилиш мумкин. Ошхонада ундан турли таомлар, жумладан, сомса, чучвара, манти, шўрва ва салатлар тайёрланади. У шамоллашга қарши самарали восита бўлиб, тетиклантириш, қувватни ошириш, ич суриш, пешоб ҳайдаш хусусиятларига эга.

Ўзига хос ифорли ва шифобахш **ялпиз** ўсимлиги таркибида эфир мойлари, ментол, кўпгина витамин ва минераллар мавжуд. У қон айланишини ва овқат ҳазмини яхшилайдди, ошқозон бузилишини бартараф этади,



шамоллашда нафас йўллари очилади, асабни тинчлантиради, бош оғриғини енгиллаштиради.

Ялпизни чой ўрнида дамлаб ичиш, ундан турли пиширик, таом ва салатлар тайёрлаш мумкин. Бу ўсимлик мойи косметология ва тиббиётда ҳам кенг қўлланилади. Ялпиз дезинфекцияловчи, оғриқ қолдирувчи, антисептик таъсирга эга бўлиб, ундан тайёрланган дамлама сафро ҳайдовчи ва спазмларга қарши самарали восита ҳисобланади. Организмни ҳам тинчлантириш, ҳам тетиклантиришга қодир ушбу хушбўй ўсимлик уйқусизликка қарши курашади, қон томирлари тизими ва юрак фаолиятини яхшилайдди, артериал қон босимини туширади ҳамда мия фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади.

## ТУНГИ ТАНОВУЛ ЗАРАРИ

**Ярим кечаси уйқу олдидан бирон егулик истеъмол қилиш организмга қандай таъсир кўрсатади?**

1. Қонда қанд миқдори ошади – кечаси ҳужайраларнинг инсулинга сезгирлиги тахминан 40 фоизга пасаяди, шу боис ҳатто енгил тамадди ҳам диабет хавфини оширади;

2. Меъёридан ортиқ истеъмол – соат 23:00 дан кейин тўқлик гормони деярли ишламайди, натижада бу пайтда инсон ўзи англамаган ҳолда одатдагидан икки барабар кўп нарса еб қўйиши мумкин;

3. Семириш хавфи – соат 22:00 дан 06:00 гача ёғларнинг парчаланиш жараёни секинлашади ва улар танада уч барабар тез тўпланади.

Агар тунги маҳал тамадди қилиш истаги туғилса, асал солинган илиқ сут ичинг ва

ухлашга ҳаракат қилинг. Бу пайтда нимадир ейиш истаги сизда тез-тез пайдо бўлса, демак, гап иштаҳада эмас, балки овқатланиш тартибида бўлиб, уни қайта кўриб чиқинг ва тўғри йўлга қўйинг.

**Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.**



## ҲАР МАВСУМДА ФОЙДАЛИ ДАРМОНДОРИ

Ўзига хос таъм ва исга эга бўлган лимон антиоксидант, яллиғланишга қарши ва имунитетни оширувчи хусусиятга эга бўлиб, нафақат даволаш амалиётида, балки озиқ-овқат ва қандолат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ҳам кенг қўлланилади.



Лимон калий, кальций, темир, магний, рух ва фосфорга бой. У мия ва асаб ҳужайраларини тўйинтиради. В гуруҳи витаминлари, углевод, оксил ва ёғлар ушбу хуш ифорли меванинг озуқавий ва шифобахш қийматини оширади. С витамини кучли антиоксидант бўлиб, эркин радикалларни нейтраллайди, коллаген ишлаб чиқилишини рағбатлантиради ва капилляр томирларни мустаҳкамлайди. Лимон таркибидаги кальций, мис ва магний суяклар соғлом ва кучли бўлиши учун жуда муҳим. Мева пўстида флавоноидлар ва кучли бактерицид хусусиятга эга эфир мойлари бор.

Бундан ташқари, у ферментлар ва ўт ишлаб чиқилишини рағбатлантириб, жигар фаолиятини ва умуман овқат ҳазм қилиш жараёнини яхшилайдди. Лимон таркибидаги пектинлар тўқлик ҳиссини беради. Ундаги флавоноидлар холестерин даражасини камайтириб, қон айланишини яхшилайдди. Бактериялар ва замбуруғларга қарши хусусиятга эга лимон шарбати моддалар алмашинувини фаоллаштириб, вазни камайтиришга хизмат қилади, буйракларда тош йиғилишининг олдини олади.

Кунига 1 дона лимон истеъмол қилиш систолик артерия босимини меъёрлайди, тромблар ҳосил бўлишига йўл қўймайди, бўғимлардаги яллиғланиш

ва оғриқни камайтиради, астмада ёрдам беради. Уни темирга бой маҳсулотлар билан бир вақтда ейиш темир ўзлаштирилишини осонлаштиради, бу эса темир танқислиги анемиясининг олдини олиш ва даволашда жуда муҳим.

Лимон ва занжабил солиб тайёрланган дамлама шамоллаш, грипп касалликларини даволашда ёрдам беради, имунитетни оширади, иштаҳа ва овқат ҳазмини яхшилайдди. Озроқ маза бериш учун ичимликка асал қўшиш тавсия этилади. Бу билан унинг фойдали таъсири янада кучаяди. Бундай шифобахш дамлама танани қиздиради ва совуқдан ҳимоя қилади. Шунинг учун уни намли ва совуқ об-ҳаво шароитида ичиш, айниқса, ёқимли ва фойдали. Ушбу ичимлик таъсири тез орада намоён бўлиб, натижада юрак тўйимли моддалар билан тўйинади, қабзият кузатилмайди, бош ғовлаши, қорин шишиши безовта қилмайди. Бундан ташқари, жигар тозаланади ва янада соғлом ишлай бошлайди, юздаги хуснбузарлар йўқолиб, сочлар ва тирноқлар ҳолати яхшиланади.

Бошқа цитрус мевалар каби лимон ҳам аллергияк маҳсулот ҳисобланади. Уни мунтазам истеъмолга кириштишдан олдин мутахассис билан маслаҳатлашиш тавсия этилади.

**Нилуфар НОРМЕТОВА,**  
шифокор-терапевт.

Бир қўшиқ тарихи

# «ОНАМ, КАСАЛМАН ДЕМАНГ...»

**Хонанда Музаффар Абдуазимов ижросидаги «Онам, касалман деманг» қўшиғининг яратилиш тарихи самимий туйғулар, юрак изтироблари ва фарзандлик меҳри билан боғлиқ таъсирчан воқеага бориб тақалади.**

– Онам ҳар куни кечкурун соғлиқлари учун кўчани яёв айланиб келардилар, – дейди хонанда. – Бир куни ишдан қайтсам, уйда ўтирибдилар. «Она, нега бугун пиёда юрмадингиз?», – деб сўрадим. «Болам, бугун сал тобим бўлмади», – дедилар секин. Онамдан бундай гапни биринчи марта эшитишим эди. Кўнглим ғалати бўлиб кетди.

Эртаси куни машина ҳайдаб кетаётганимда қўшиқ тинглар эканман, яна онам хаёлимга келди. Бирдан бўғзимдан ҳайқирик отилиб чиқди:

**«Онам, касалман деманг,  
Болам, касалман деманг,  
Ҳоли ёмонман деманг,  
Адо бўламан...»**

Машинани четга тўхтатиб, шу мисраларни дарҳол диктофонга ёзиб қўйдим. Уйга боргач, онам билан узоқ суҳбатлашиб ўтирдим. Шу орада қалбимдан яна тўрт мисра қуюлиб келди:

**Жону жаҳоним менинг,  
Гулу райҳоним менинг,  
Сўлиб боряпман деманг,  
Тамом бўламан...**



Шу тариқа саккиз қатор шеър яралди. Бу шеър эмас, қалбимдаги нола, фарзандлик изтиробимнинг ифодаси эди. Уни шоирга кўрсатиб, айнан шу руҳда давом эттиришни, мазмунини бойтадиган яна бир неча мисра қўшиб беришини илтимос қилдим.

Қисқа фурсат ичида композитор Баҳодир Низомов шеърга куй басталайди. Хонанда қўшиқни бир неча студияда қайта-қайта ёзиб кўради. Турли вариантлар устида

ишлайди. Шунга қарамай, кўнгил тўлмайди, ўзи излаган оҳангни тополмагандек, нимадир кам, нимадир етишмаётгандек туюлаверади.

Бироқ қўшиқ албатта янграши, одамлар қалбига етиб боришини жуда-жуда истарди. Узоқ ўйлаб, қўшиқни бир аёл хонандага ижтимоий тармоқ орқали жўнатиб, жавоб кутади. Аммо жавоб келмайди...

Ниҳоят, у қўшиқнинг ўзи ижро этган вариантини ижтимоий тар-

моққа жойлаштиради. Орадан 10–15 кун ўтар-ўтмас, қўшиқ кутилмаганда хит даражасига кўтарилади. Уни айнан мухлисларнинг ўзи қўллаб-қувватлаб, кенг оммага олиб чиқади. Самимият билан яратилган асар шу тариқа ўз йўлини ўзи топади.

Қўшиқ қисқа фурсатда машхурликка эришгач, ҳаваскор хонандалар Музаффар Абдуазимовдан уни тўй-томошаларда ижро этиш учун рухсат сўрай бошлашади. У эса ҳеч қандай қаршиликсиз розилик беради.

– Қўшиқ мен учун қанчалик қадрли бўлмасин, уни ҳеч қачон қизғанмайман. Чунки ижодкор учун энг катта бойлик – асарининг халқ қалбига етиб боришидир. Фақат бир нарсани истардим: ижро этилганда муаллифи кимлиги қайд этилса, номи ёзиб қўйилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди, – дейди хонанда.

Хулоса ўрнида айтмоқчи бўлганимиз, ҳақиқий ижод режа ёки ҳисоб-китобдан эмас, балки қалб туғенидан туғилади. Музаффар Абдуазимовнинг «Онам, касалман деманг» қўшиғи ҳам шу тарзда юрак дардидан яралган.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,  
ўз мухбиримиз.**

## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(9 – 15 март)

**Қўй (21.03 – 20.04).** Ҳафта бошида бажарган ҳар бир ишингиз унумли ва баракали бўлиши кутилмоқда. Бир қатор муҳим ишларни амалга оширасиз. Изланувчанлик, интилувчанлик фазилатларини сақлаб қолсангиз, ўқишда ҳам, ишда ҳам муваффақиятга эришасиз.

**Бузоқ (21.04 – 20.05).** Воқеа-ҳодисалар сизни айрим масалаларга муносабатингизни ўзгартиришга олиб келади. Илгари йўл қўйилган хато ва камчиликларни тузатасиз. Шу қаторда, ишдаги кўплаб муаммоларни ҳал этиш учун қулай вақт. Ҳар бир режани пухта ўйлаб, амалга оширинг.

**Эгизаклар (21.05 – 21.06).** Келаётган ҳафтанинг биринчи ярми сиз учун омадли кечиши кутилмоқда. Шу боис ҳаракатни қийин юмушлардан бошланг. Сиздаги ижодий иқтидор бу ҳафта маънавий юксалиш даври бўлишига асос бўла олади. Бу паллада янгиликка интилиш, ўқиш ва ўрганиш нуфузингизни оширади.

**Қисқичбақа (22.06 – 22.07).** Ҳафта бошида қувончли ҳолатларни кутманг. Аммо кейинги кунларда истиқболли танишув юзага келиши мумкин. Жума куни дам олиш, дўстлар ёки яқинлар билан учрашиш имконияти туғилади. Ҳафта сўнгида ота-онангизни зиёрат қилишни режалаштиринг.

**Арслон (23.07 – 23.08).** Бу ҳафта сизни баъзи кўнгилсизликлар кутмоқда. Лекин тез орада ҳаётингизда янги омад эшиклари очилиши мумкин. Пул маблағларини йўқотишни истамасангиз, ҳозирча ҳеч кимга қарз бермай турганингиз маъқул.

**Паризод (24.08 – 23.09).** Ким биландир муросага кела олмай, тортишиб қолган бўлсангиз, тезроқ ярашишга ҳаракат қилинг. Иш жойингизда ўта мураккаб топшириқ юкланиши, ҳафта сўнгида эса режада бўлмаган харажатлар кузатилиши мумкин. Бу даврда зиддиятларнинг олдини олиб, ён-атрофдагилар билан ҳушмуомала бўлинг.

**Тарози (24.09 – 23.10).** Шу кунларда иш юзасидан бир қанча таклифлар келиб тушиши мумкин. Уларни қабул қилишдан олдин, ҳар бир жиҳатни синчиклаб ўрганиб, пухта ўйлаб кўринг. Фарзандларингиз билан ишончли муносабат ўрнатишга ҳаракат қилинг. Молиявий масалаларда диққат-эътиборли бўлинг.

**Чаён (24.10 – 22.11).** Ҳал этиб бўлмайдиган ва чигал масалалар ҳеч бир қийинчиликсиз ўз ечимини топади. Ҳафта ўртасида ҳамма ишлар бароридан кела бошлайди. Бўш вақтингизни имкон қадар оила даврасида ўтказинг. Дам олиш кунлари режалаштирилмаган харажатлар бўлиши мумкин.

**Ўқотар (23.11 – 21.12).** Бу ҳафта ҳар қандай ишда таваккал қилсангиз бўлади. Барча режа ва ўйлаб қўйилган ишларни амалга ошириш учун омадли давр. Ушбу кунлар давомида молиявий, муҳаббат ва дўстлик масалаларида тақдирингизда ўз изини қолдирадиган кескин ўзгаришлар кутилмоқда.

**Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01).** Айрим вазифалардан воз кечишга тўғри келади. Бу даврда берилган қарз қўлингизга анча муддат ўтиб қайтади. Бу ҳафтада режалаштирилган барча юмушлар кўнгилдагидек амалга ошади.

**Қовға (21.01 – 19.02).** Бу давр фойдали жиҳатларга бой бўлади. Пайшанбадан кейинги кунлар сиз учун ҳақиқий синов палласига айланади. Ҳамкасблар билан келишмовчилик, молиявий қийинчиликлар, кайфиятнинг ўзгариши – буларнинг бари вазиятни издан чиқариб, асабийлашишга сабаб бўлиши мумкин.

**Балиқ (20.02 – 20.03).** Руҳий тушкунлик ва ортиқча хавотир ҳозир сизга панд бериши мумкин. Ҳиссиёт ва ваҳимага берилмасликка, асабийлашмасликка ҳаракат қилинг. Бу ҳафтада режалаштирилган учрашувлар ўта ёқимли ва омадли ўтади, баъзилари ҳатто хотирага муҳрланиб қолади. Ҳал этиб бўлмайдиган чигал масалалар ҳеч бир қийинчиликсиз ўз ечимини топади.

## Yo'l qoidasi — umr foydasi

## SERYOG'IN HAVODA EHTIYOT SHART

Bugun mamlakatimiz yoshlari jamiyatning barcha sohalarida yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Shunday fidoyi yoshlar orasida yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini asrash uchun bor kuchini safarbar etayotgan YPX xodimlari ham bor.

Samarqand viloyati IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi saf bo'linmalari ikkinchi otryadi uchinchi safarbar guruhi katta inspektori, kichik serjant Rustam Mexriyev shunday yoshlardan biri. U o'z xizmatini yuksak mas'uliyat bilan bajarib, yo'llardagi tartib va xavfsizlikni ta'minlashda safdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

– Xizmat jarayonida turli odamlarga duch kelamiz. Kimdir ishga, birovlar maktab yoki bog'chaga shoshiladi. Yana kimdir zarurat yuzasidan yo'lga chiqadi. Biz har bir haydovchi va piyodaning uyiga

sog'-omon yetib borishiga mas'ulmiz, xavfsizligi uchun javobgarmiz. Shuning uchun ishtirokchilarning yo'l harakati qoidalariga amal qilishlarini nazorat qilish bilan birga, ularga qoidalariga qat'iy rioya qilishini tushuntiramiz, – deydi R. Mexriyev. – Bahor oylari yomg'ir ko'p bo'ladi. Ko'rinish pasayadi. Bunday paytlarda yanada hushyor bo'lishimiz kerak.

Bir kuni yomg'irli havo edi. Yo'l sirpanchiq, haydovchilarning diqqati sust. Ana shunday paytda R. Mexriyev tez kelayotgan bir avtomobilni to'xtatib, piyodalar o'tish yo'laklarida e'tiborli

bo'lishni eslatdi. Haydovchi bu ogohlantirishni og'rib qabul qildi. Lekin shu tobda yondan o'tib ketayotgan mashina haydovchisi yomg'ir sabab yo'lakni kesib o'tayotgan piyodani bexosdan turtib yuborganini ko'rib, ogohlantirish bejiz emasligini tushundi. Bunday misollar oz emas. YPX xodimining har kuni inson hayotini muhofaza qilish yo'lidagi xizmat bilan o'tadi.

Kichik serjant Rustam Mexriyev yo'llardagi harakatlarni sergaklik bilan nazorat qilarkan, keksalarga alohida ahamiyat berib, piyodalar o'tish yo'laklarida ularni ko'rib qolsa, darrov yordamga oshiqadi. Haydovchilarga bahorgi seryog'in kunlarda diqqat e'tiborli bo'lish shartligini alohida uqtiradi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.



## Probatsiya xizmati

## NAZORAT, QAYTA TARBIYA VA AMALIY YORDAM

**Farg'ona shahar IIB Probatsiya bo'limi shaxsiy tarkibi nazorat ostidagi shaxslar bilan tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.**

– Har bir nazoratdagi shaxsning ong-u shuurini ijobiy tomonga o'zgartirib, qayta tarbiyalashga harakat qilamiz, – deydi Probatsiya bo'limi inspektori, mayor Doniyor Zuhritdinov. – Takroran jinoyatga qo'l urmasligi, to'g'ri va halol yashab, oilasi va xalqiga xizmat qilishi uchun barcha zarur amaliy

yordamni ko'rsatamiz. Maqsadimiz shuki, hayot yo'lida bir marta adashgan shaxs qayta xatoga qo'l urmasin!

Sohaviy xizmat xodimlari har qancha nazorat qilib, to'g'ri yo'l ko'rsatmasin, baribir tuzalish yo'lga o'tmaydigan, jazo o'tash tartib-qoidalariga bepisand qaray-

digan mahkumlar ham yo'q emas. Qonunchilik talablariga binoan, ularning jazosi og'irroq'iga almashtiriladi.

**Masalan, yaqinda Kasbiy ko'nikmalar mintaqaviy markazida jinoyat ishlari bo'yicha Farg'ona shahar sudi, prokuratura, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan hamkorlikda sayyor sud tashkil etilgan edi.**

**Unda jazo o'tashdan qasddan bo'yin tovlab, xodimlarning qonuniy talabini bajarmay kelayotgan 2 nafar nazoratdagi shaxsning jazo turi ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirilib, sud zalida qamoqqa olindi.**

Mehnatga halol munosabatda bo'lgan, jazo o'tash tartib-qoidalariga amal qilib, tuzalish yo'lga o'tgan 2 nafar nazoratdagi shaxs esa Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan, tayinlangan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi.

Shu kuni Kasbiy ko'nikmalar mintaqaviy markazida mehnat yarmarkasi ham tashkillanib, 3 nafar nazoratdagi shaxs ishga joylashtirildi. Markaz mutaxassislari kasbga o'qitish kurslari bo'yicha batafsil tushunchalar bergach, 4 nafar nazoratdagi shaxs o'qish istagini bildirdi va shu yerning o'zida shartnoma tuzilib, bepul o'qishga qabul qilindi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Minbar

## DIYORIMNING YUZIMAN – O'ZBEGIMNING QIZIMAN!

2023-yili viloyat IIB tuzilmasida Zomin turizm rekreatsion hududida xizmat olib boradigan Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limi tashkil qilindi. Keyinchalik shtat birliklari oshirilib, Arnasoy tumanida ham bo'lim faoliyati yo'lga qo'yildi. Men ushbu bo'limda faoliyat yuritayotgan yagona ayol inspektor ekanligim va yurtimiz jamolini tomosha qilmoq niyatida kelgan sayyohlarga O'zbekiston yuzi sifatida namoyon bo'lishdan faxrlanaman. Har tong xizmatga otlar ekanman, bu his meni qayta-qayta chulg'aydi.



Zomin dor yo'li, mashhur «Suffa 2400» tekisligi, Milliy bog'ni ko'rishga kelgan sayyoh borki, bizning bo'limimiz uchun maxsus qurilgan binoga ko'zi tushadi. Bu yerda turistik axborot markazi mavjud bo'lib, sayyohlar eng ko'p qiziqish bildiradigan joylar turizm politsiyasining tezkor guruhlar tomonidan tun-u kun qo'riqlanadi. Har bir xodim biror xorijiy tilni biladi. Chet elliklar bilan tarjimonsiz, samimiy muloqot o'rnatishi sabab xodimlarimiz ularda yorqin taassurot qoldiradi. Muhimi, ular sayyohlarga tezkor yordam ko'rsatishga shay.

Zomin tumanida turistik infratuzilma obyektlari umumiy soni 147 ta bo'lib, shundan muzey, ziyorat turizmi obyektlari, arxeologiya, arxitektura, monumental san'at yodgorliklari kabi bir-birini takrorlamaydigan maskanlar mavjud. Bundan tashqari, 140 ta joylashtirish vositasi faoliyat yuritmoqda. Barcha obyektlar sayyohlik rivojiga qaratilayotgan e'tibor sabab yil bo'yi gavjum. Bu esa turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida

jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashda alohida yondashuvni talab qiladi.

Sayyohlik politsiyasi – mamlakatning yuzi. Shu sabab bo'limimizda ishlashni istaganlarning tashqi qiyofasi, o'zini tutishi, chet tillarini bilishi, tezkor va oqilona yechim topish qobiliyati alohida qadrlanadi. Men ham turk tilini o'rgandim, ichki ishlar organi xodimi sifatida kasbiy va shaxsiy rivojlanish yo'lidaman.

O'zbekiston – xavfsiz turizm mamlakati. Bu allaqachon bir necha xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlarida qayd qilingan. Ana shu nom barqaror saqlanib turishi, go'zal Jizzaxga kelgan sayyoh uning xushfe'l odamlari, betakror tabiati, tansiq noz-ne'matlari bilan birga, ajoyib imijga ega turizm politsiyasi haqida ham yorqin taassurotga ega bo'lishi – asosiy maqsadimizdir.

**Umida EGAMOVA,**  
Jizzax viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limi inspektori, mayor.

Ehtirom

## HAR O'GITI – QIMMATLI SABOQ

*O'tgan yilning dekabr oyida Qarshi tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasida voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash bo'yicha inspektor-psixolog sifatida faoliyatimni boshladim. Xizmat yo'limning ilk qadamlarida menga tajribali rahbar xodim – podpolkovnik Mahliyo Nazarova murabbiy etib birlashtirildi.*

Mahliyo Nazarova yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida ichki ishlar organlarida xizmat qilib keladi. Jonkuyar va shogirdlariga mehribon xodim. U kishining boy tajribasidan bahramand bo'lib, o'z bilim va ko'nikmalarimni mustahkamlab boryapman. Har bir maslahati, har bir o'giti men uchun qimmatli saboq bo'lmoqda. Ustozimdan xizmatga mas'uliyat bilan yondashish, fuqarolar dardini tinglay bilish, vaziyatni chuqur tahlil qilish va har qanday holatda vazminlikni saqlab qolishni o'rganmoqdaman.

Qisqa faoliyatim davomida, ustozimning o'gitlaridan shuni angladimki, ichki ishlar organlari – xalqning ishonchi va tayanchi. Odamlar o'z dardi, muammosi bilan, birinchi nav-

batda, aynan shu soha vakillariga murojaat qiladi. Demak, bizdan nafaqat qonunni bilish, balki yuksak insoniy fazilatlar ham talab etiladi.

Yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilish – katta sharaf. Men bu yo'lida faqat olg'a intilishga, o'qib-o'rganishga, ustozimning ishonchini oqlashga astoydil harakat qilaman. Zero, ustoz bor ekan, shogird kamol topadi.

Fursatdan foydalanib, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo'lida sidqidildan xizmat qilib kelayotgan soha xodimlarini, xususan, ustozim, podpolkovnik Mahliyo Nazarovani Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

**Mardon RAHIMQULOV,**  
katta serjant.

*Qashqadaryo viloyati.*



Qashqadaryo viloyati

## OYLIK DOIRASIDA

**Ichki ishlar vazirining tegishli farmoyishiga asosan, joriy yilning 1-fevral kundan 1-mart kuniga qadar mamlakatimizda «Yoshlar orasida giyohvandlik vositalarining tarqatilishiga qarshi kurashish» oyligi o'tkazildi. Oylik doirasida profilaktik targ'ibot ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi.**

Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari tomonidan manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda vohaning barcha shahar-tumanlarida yoshlar ishtirokida «Yoshlar – giyohvandlikka qarshi» shiori ostida uchrashuvlar tashkil etildi.

Mutaxassislar jalb etilgan holda, oliy o'quv yurtlarida, maktablarda, mahallalarda, mehnat jamoalarida davra suhbatlari uyushtirilib, videolavhalar namoyish qilindi. Bundan tashqari, tadbirlarda giyohvandlik va narkotik vositalar iste'molining salbiy oqibatlarini, qonunlarda belgilangan javobgarlik masalalari haqida batafsil so'z yuritildi.

Oylik davomida fuqarolar tomonidan giyohvandlik moddalarini ekish, saqlash va sotish bilan bog'liq 17 ta holat aniqlandi. Og'ufurushlardan 3 kilogramm 99 gramm marixuana, 892 gramm gashish giyohvand moddalari hujjatlashtirib olin-

di. Gumonlanuvchilarga nisbatan 27 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Profilaktik tadbirlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari, sport musobaqalari, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari ham o'tkazildi. Bundan tashqari, giyohvandlik ortidan kelib chiqadigan kasalliklar haqida mutaxassislar tomonidan ish-tirokchilarga tushunchalar berildi.

**Asliddin RASHIDOV,**  
kapitan.

## MEHR TUGAMASIN



*Muhtaram ichki ishlar organlari xodimalari!*

*Ushbu bahoriy ayyomda «Uzbekistan Airways» AJ jamoasi sizlarga o'zlarining eng samimiy salomlarini yo'llaydi va bayram bilan chin qalbdan muborakbod etadi.*

*Kasblarimiz ko'p jihatdan o'xshash: biz xavfsizlikni birdek qadrlaymiz, intizomga rioya qilamiz hamda osmondagi va yerdagi osoyishtalik qadrini yaxshi bilamiz.*

*Sizlarning nozik qo'llaringizda tartib-intizom mustahkamlanayotgani, xizmatning og'ir ish kunlari nurafshon va go'zal qiyofa kasb etayotgani bizni chin dildan quvontiradi.*

*Sizlarga hayot radarlarida doimo baxt manzilari ko'rinib turishini, yo'lingiz hamisha bexatar, qalbingizda esa «parvoz ob-havosi» hukmron bo'lishini tilaymiz.*

*Har bir xizmat safaringiz shinam xonadoninigizga muvaffaqiyatli qo'nish bilan yakunlansin, qalbingizdagi mehr va g'ayrat-shijoat hech qachon tugamasin.*

*Bahor fasli sizlarga parvoz yengilligini va musaffo, tinch osmonni hadya etsin.*

*Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz posbon ayollar!*

*Kamoli ehtirom ila, uchuvchilar*

Otabek IRGASHEV,  
Feruz ERGASHEV.

Ichki ishlar  
xodimining ayoli

*Qayda bo'lsa, yoridadir xayoli,  
Bibixonim kabi ziyrak, ziyoli,  
O'z ahdiga sadoqatli, vafoli,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Xizmatlari kam emasdir posbondan,  
Sultoni ham rozidir bu insondan,  
Farishtadek tushganmikan osmondan?  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Tabassumi qalqon erur jahldan,  
Orzulari tug'ilgandir mehrdan,  
Baxtin topgan shukrona ham sabrdan,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Mudom hushyor ont ichgandek xizmatga,  
Arzir maqto'v, qancha hurmat-izzatga,  
Asli har kun xizmat qilar millatga,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Generalga aylantirar safdorni,  
Ilhom berib, ishga yo'llar sardorni,  
Intizori bir lahzalik diydorni,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Boshqalardek doim kulib yayramas,  
Yor xizmatdan qaytmaguncha uxlamas,  
El tinchidan o'zgasini o'ylamas,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Payti keldi, aytmoqlikning xonasi,  
Siz tufayli oila – baxt koshonasi,  
Vatanparvar farzandlarning onasi,  
Ichki ishlar xodimining ayoli.*

*Ichki ishlar xodimining ayoli,  
Posbon erning bir umrlik haloli.*

Xurshidbek RO'ZIYEV,  
podpolkovnik.

## Dil izhori

## YO'LCHI YULDUZ

**O**najonim – Navoiy viloyati IIB Moliyaviy ta'minot xizmati katta mutaxassisi, leytenant Venera Abdullayeva men uchun hayotimda bamisoli yo'lchi yulduz. Bolaligimda uning o'ta intizomli va mas'uliyatli ekaniga havas qilardim. Qo'laversa, yurt osoyishtaligini ta'minlashga hissa qo'shayotganidan faxrlanardim.

Ana shu havas va faxr tuyg'usi meni IIV Navoiy akademik litseyiga boshlab keldi. Ushbu ta'lim muassasasini imtiyozli diplom bilan tamomladim. Bugungi kunda IIV Akademiyasi 2-bosqich kursantiman. Mazkur nufuzli oliy o'quv yurtiga kirishimda onamning fidoyilarcha xizmatlari uchun berilgan tavsiyanoma muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu ishonch menga katta mas'uliyat yukladi. Akademiyada namunali xulqim va a'lo baholarim uchun o'ta onam nomiga tashakkurnoma yuborilganidan g'ururlanaman.



man. Hayotimda erishgan har bir yutug'im, avvalo, o'ta onamning mehnati, tarbiyasi va duolari tufaylidir.

Men ingliz tilida erkin mu-loqot qila olishimning tasdig'i sifatida IELTS sertifikatiga egaman. Biroq eng muhim «sertifikatim» — bu halollik, intizom, Vatanga muhabbat va burchga sadoqat bobida onam bergan hayotiy saboqlardir.

Onajonim, fursatdan foydalanib Sizni Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etaman. Sizning mehringiz va ishonchingiz menga kuch-quvvat beradi. Doimo yuzingizni yorug' qilishga, Sizga munosib farzand bo'lishga va'da beraman.

Muhammadabdullo  
BAHODIROV,  
IIV Akademiyasi kursanti.

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

**Bosh muharrir**  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

**Bosh muharrir**  
o'rinbosarlari  
podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

**Mas'ul muharrir**  
Erkin SATTOROV

**Veb-dizaynerlar**  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

**Navbatchilar**  
Kamol OLLOYOROV  
Radik TUMPAROV

## TELEFONLAR:

71-231-33-88;

**Obuna masalalari**  
bo'yicha:  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz  
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va  
axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 563.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49598 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.